

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**«Himoyaga ruxsat etiladi»  
Pedagogika fakulteti dekani,  
g.f.n., dotsent**

**K.M.Boymirzayev**

**«\_\_» \_\_\_\_\_ 2018-y.**

**5111700-boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish  
yo'nalishi bitiruvchisi**

**Abduraximova Ziyoda Abdugafur qizining**

**«Interaktiv metodlarni ona tili darslarida son so'z turkumini o'tish  
jarayonida qo'llash usullari» mavzuidagi**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**«Himoyaga tavsiya etildi»  
Boshlang'ich ta'lim metodikasi  
kafedrası mudiri**

**\_\_\_\_\_ p.f.n. B.Sattarov**

**«\_\_» \_\_\_\_\_ 2018- y**

**BMI rahbari: \_\_\_\_\_  
Sh.Xujamberdiyeva**

**Mavzu: «Interaktiv metodlarni ona tili darslarida son soʻz turkumini oʻtish jarayonida qoʻllash usullari»**

**Reja:**

**Kirish**

**1-bob. Boshlangʻich sinf ona tili darslarida son – soʻz turkumini oʻrganish uslubiyoti**

1.1. Soʻz turkumlari - boshlangʻich sinf ona tili taʼlimining asosi

1.2. Son – soʻz turkumi haqida maʼlumot

**2-bob. Interaktiv metodlarni ona tili darslarida son soʻz turkumini oʻtish jarayonida qoʻllash usullari**

2.1. Son-soʻz turkumini oʻtishda interaktiv usullardan foydalanib, oʻquvchilar faolligini oshirish yoʻllari

2.2. Son-soʻz turkumini oʻrganishga fanlararo bogʻlanishni amalga oshirish usullari

2.3. 4- sinf ona tili darslarida son-soʻz turkumini oʻtishda interfaol usullarni qoʻllash

2.4. Tajriba – sinov ishi.

**Xulosa**

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati**

## **Kirish.**

**Mavzuning dolzarbligi.** Bugungi ta'lim jarayonida jiddiy islohotlar, tub burilishlar uning mazmunini yangilash bilan aloqador bo'lgan katta salmoqdagi ishlar amalga oshirilmoqda. Buning uchun nihoyatda katta kuch va mehnat sarflanmoqda. Ijobiy o'zgarishlarni yuzaga keltirish uchun davlat ham, jamiyat ham to'la safarbar qilingan.

“Har bir avlod oldida insoniyat yaratgan jamiki boyliklarni, bilimlarni o'rganish, o'zlashtirish va rivojlantirish vazifasi turadi. Hayot taraqqiyoti va jamiyat rivojini shusiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu vazifani amalga oshirishning birdan bir yo'li ta'lim tizimini tinmay takomillashtirib borish orqali yosh avlodni barkamol, komil inson qilib tarbiyalash”<sup>1</sup> ekanligi doimo biz – pedagoglarning e'tiborimizdadir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi farmonining (*O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda*) “Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish” bo'limida “Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish.

Ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish.

Ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish.

Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish bo'limida:

---

<sup>1</sup>Komilov N. Komil inson – millat kelajagi. – Toshkent: O'zbekiston, 2001.

- sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish;

- o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb etish;

- yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish;

- yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, yosh oilalar uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish;

- yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, ta'lim muassasalari, yoshlar va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyatini tashkil etish to'grisida alohida ta'kidlab o'tilgan<sup>2</sup>.

Bizning bosh maqsadimiz ham ma'nan barkamol, mustaqil fikrli shaxs tarbiyalashdir. Bu borada ta'lim sohasi katta ahamiyat kasb etadi. Ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlarning chegarasi va poyoni yo'q. Toki hayot davom etar ekan, ta'lim ham, tarbiya ham zamon o'rtaga qo'yayotgan yangi-yangi talablarga ko'ra muttasil ravishda o'zgarib-yangilanib boraveradi. Faqat biz bu sohadagi dastlabki qadamlarimizni to'g'ri qo'ya olsak, poydevorni mustahkam qilib barpo etsak, men shunga ishonamanki, bugungi avlod uning samarasidan bahramand bo'lajak, kelgusi avlod esa bizning qilgan ishlarimizni ehtirom va minnatdorlik tuyg'usi bilan eslaydi.

Yuqorida qayd qilingan tushuncha va muammolarni talqin qilish hamda javob topishga intilish bugungi kunimizning dolzarb masalalaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 20-aprel kuni "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarorida "Oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy

---

<sup>2</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida, (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda)

rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta qurish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun sharoitlar yaratilishini ta'minlash kerak",<sup>3</sup> deb ta'kilab o'tgan fikriga qo'shilgan holda ushbu qaror ijrosi bo'yicha yurtimizda olib borilayotgan ijobiy ishlarning natijasi sifatida umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida dars beradigan bo'lajak pedagoglarning oliy ta'lim dargohlarida oladigan bilim darajalariga e'tibor yanada kuchaytirila boshlandi. Bu esa ularning yosh avlod ta'lim-tarbiyasida, ayniqsa, mustaqil fikrlash malaklarini shakllanishida o'z ahamiyatiga egaligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, yurtimizda o'zbek tilining har tomonlama taraqqiy topishi va adabiy til sifatida maydonga chiqishida qadimiy turkiy til hissa qo'shganini alohida ta'kidlash tabiiydir.

Albatta, bu maqsadga erishish uchun barcha fan mutaxassislarining birgalikdagi harakat dasturlari zarur. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ana shunday tayanch davlat hujjati bo'la oladi. Unda mavjud kamchiliklar ham, bu kamchiliklarni bartaraf etish yo'llari ham ochiq-oydin ko'rsatib berilgan.

Alohida olingan fanlar, jumladan, ona tili fanini o'qitish jarayonida ham bu vazifalarni bajarish uchun katta va munosib hissa qo'shish imkoniyatlari kam emas. Gap mustaqil va ijodiy fikrlaydigan barkamol avlodni tarbiyalash ustida borar ekan, bu vazifani til va adabiyot ta'limisiz tasavvur etish mumkin emas.

Vatanimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan kundan boshlab ta'lim sohasining barcha jabhalariga katta e'tibor berila boshlandi. Ayniqsa, o'z ona tilimizga bo'lgan e'tibor uni yanada chuqur va mukammal o'rganishimizga asos bo'ldi.

Til - millatning bebaho boyligi. Til o'rganish har bir o'quvchining vazifalaridan biri bo'mog'i lozim. Dunyoda tillar ko'p. Bu tillar ichida bizning ona tilimizga bo'lgan e'tibor kattadir.

---

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori // Xalq so'zi, 2017-yil.-21-aprel.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti asosida tuzilgan maxsus o'quv dasturining asosiy talablaridan biri o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish, bilish faolligini oshirishdir. Bularni amalga oshirish uchun o'quvchilarni til hodisalari haqida o'ylashga, fikrlashga, munozara, muhokama yuritishga, xulosa chiqarishga o'rgatilgan samarali uslub va usullardan foydalanish talab etiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili darslari orqali til qonun-qoidalari xususida nazariy va amaliy materiallarni tanishtiramiz.

Ona tili ta'limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirishga, ularda erkin fikrlay olish, o'z g'alar fikrini anglash, o'z fikrlarini ravon bayon qila olishga, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqatda bo'la olishga va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich ta'limda Davlat ta'lim standarti o'qish fanlari bo'yicha emas, balki ta'lim sohalari bo'yicha belgilangan. Ona tili ta'limi bolalarni tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirishga, ularda erkin fikrlay olish, o'z g'alar fikrini anglash, o'z fikrlari orqali va yozma ravishda ravon bayon qila olishga jamiyat a'zolari bilan erkin muloqatda bo'la olishga ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bu o'rinda ona tili ta'limiga o'quv fani emas, balki butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim yasovchi sifatida qaraladi.

Ona tili ta'limi standarti ko'rsatgichlari bolaning fikrlay olishga ifodalangan fikrni anglashga va o'z fikrini savodli mantiqiy izchilikka rioya qilgan holda bayon qila olishga o'rgatish nuqtai-nazaridan boshlangan.

Ona tili fanining mavzularining, xususan son-so'z turkumini o'rganish jarayonida o'quvchilarda boshqa ko'pgina o'quv fanlari uchun umumiy bo'lgan ko'nikmalar, fanlararo ko'nikmalarni xosil qilish ustida ish olib borish maqsadga muvofiqdir.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarni so'z turkumlari, xususan, son-so'z turkumlari yuzasidan bilim va malakalarini oshirib borishga jiddiy e'tibor berish kerak. Chunki o'quvchilar so'z turkumlarini to'la bilmay hech bir gap tarkibidan so'zni tahlil qila olmaydilar. Shuni e'tiborga olgan holda, uslubshunos

olimlarimiz o'zlarining darslik, qo'llanmalarida ham so'z turkumlari xususida fikr yuritganlar. Lekin har bir boshlang'ich sinf xususida bu kabi ishlarning mavjud emasligi boshlang'ich sinflarning bir, ikki, uch, to'rtinchi sinflarida berib o'tilgan so'z turkumlarini o'tish jarayonida bu kabi uslubiy ishlarning yo'qligini e'tiborga olgan holda «Interaktiv metodlarni ona tili darslarida son so'z turkumini o'tish jarayonida qo'llash usullari» mavzusini bitiruv malakaviy ishimizga asos qilib oldik. Mavzuni bugungi kun tartiblari asosida yoritish hozirgi kunimizning dolzarb masalalaridan biri sanaladi.

### **Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari.**

Ushbu bitiruv malakaviy ishimizda boshlang'ich sinf ona tili darslarida son-so'z turkumini o'rganish yo'llarini tahlil etishni asosiy maqsad qilib qo'ydik. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirdik.

- son – so'z turkumi xususida umumiy ma'lumot berish;
- son – so'z turkumini ma'lum tartib asosida o'rganish yo'llarini ko'rsatib berish;
- o'quvchilarni son – so'z turkumi yuzasidagi bilim va malakalarini shakllantirish, ularni tahlil qilishga o'rgatish.

### **Tanlangan obyekt va tadqiqot usullari.**

Biz oldimizga qo'ygan muammoni o'rganish uchun shahrimizdagi 7-umumta'lim maktabining 4-sinf o'quvchilarini tadqiqot obyekti qilib oldik. Ushbu obyektida boshlang'ich sinf ona tili darslarida son – so'z turkumini o'rganish masalasini interaktiv metodlardan foydalangan holda tadqiq etdik.

### **Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati.**

Mazkur bitiruv malakaviy ishimizning nazariy ahamiyati shundaki, u boshlang'ich sinf ona tili darslarida, ayniqsa, 4-sinf ona tili darslarida son – so'z turkumini o'rganish haqidagi tasavvurlarda aniqlik kiritadi.

Bitiruv malakaviy ishimizdagi kuzatish va qarashlarimiz, mavjud fikrlar asosida boyitib, ishning nazariy qimmatini oshirishni ko'zda tutadi.

Boshlang'ich ta'lim uslubshunosligiga mazkur muammo maxsus o'rganilmaganligi, bugungi kunda bu masalaning muhim tomonini hisobga olgan

holda ushbu bitiruv malakaviy ishimizda ilgari surilgan fikr va xulosalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishimizning material va xulosalaridan boshlang'ich sinf o'quvchilari ona tili darslarida son – so'z turkumini o'rganish bo'yicha olib boradigan darslarida unumli foydalanishlari mumkin.

### **Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi.**

Ushbu bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki asosiy bob, tajriba-sinov ishlari, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlardan iborat.



## **1-bob. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida son – so'z turkumini o'rganish uslubiyoti**

### **1.1. So'z turkumlari - boshlang'ich sinf ona tili ta'limining asosi.**

«Biz yosh avlodni mustaqil bilim ola bilishga o'rgatishimiz lozim. Bu narsa bizning umumta'lim maktablari hal qilishi zarur bo'lgan eng muhim masalalardan biridir».<sup>4</sup> O'quvchilarni mustaqil bilim olishga tayyorlash ishlari boshlang'ich sinflardan boshlanadi. Shuning uchun ham dasturlarda bu masalaga alohida e'tibor berilgan.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da chuqur nazariy va amaliy bilimlar bilan bir qatorda tanlagan sohasi bo'yicha mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan, o'z bilimi va malakasini mustaqil ravishda oshirib boradigan, masalaga ijodiy yondashgan holda muammoli vaziyatlarni to'g'ri aniqlab, tahlil qilib, sharoitga tez moslasha oladigan mutaxassisllarni tayyorlash asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Ma'lumki, axborot va bilimlar doirasi tez sur'atlar bilan kengayib borayotgan hozirgi sharoitda barcha ma'lumotlarni faqat dars mashg'ulotlari paytida talabalarga yetkazish qiyin.

Shuning uchun har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi dastlab o'quvchida o'z qobiliyati va aqliy imkoniyatlariga ishonch uyg'otishi, ularni sabr-toqat bilan, bosqichma-bosqich mustaqil bilim olishni to'g'ri tashkil qilishga o'rgatib borishi lozim bo'ladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyani muntazam tahlil qilib borish loyihalashtirish vositalarining eng zarurini tanlash metodlarini maqsadga muvofiqligini aniqlash bilish (ta'lim metodini) olinishi zarur bo'lgan natijani oldindan tahlil qilish (maqsadlarini amalga oshirishda), ta'lim jarayonining yaxlitligini ta'minlash kabi tamoyillariga asoslangan holda va ilg'or pedagogik texnologiyalarga va ta'limda joriy qilish, ayniqsa, horijiy davlatlarda pedagogik texnologiyalar tajribalaridan foydalangan holda o'zining sistemalashtirilgan ta'lim jarayonining yangi pedagogik texnologiya tizimini vujudga keltirish borasida amalga

---

<sup>4</sup> Boshlang'ich ta'lim bo'yicha yangi tahrirdagi o'quv dasturi. - Toshkent, 2010.

oshiriladigan ishlarni umumlashtirish va hayotga ko'llash uchun kuyidagi tadbirlarga amal qilish maqsadga muvofiqdir.

1. Ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'quv mehnati ish rejasini tuzar ekan, ushbu reja o'z ifodasini topmog'i lozim. Ma'lumki, o'qituvchilarimiz tuzayotgan o'quv rejalarida dars mavzularini soatma-soat taqsimotini belgilaydi. Ushbu reja asosida o'qituvchi darslarni o'taveradi. Hamda qaysi darsda qanday o'quv, bilim faoliyati amalga oshirilishidan o'quvchilar mutlaqo xabarsiz bo'ladilar. O'quvchi uchun har bir dars odatdagi darsga aylanib qoladi. Natijada u darsning passiv ishtirokchisiga bo'ladi. Yangi pedagogik texnologiya tamoyillari bog'liq bo'lgan o'quv mehnatining o'qituvchi o'quvchi o'rtasida izchil rejalashtirilgan taqsimoti o'qituvchidan.

2. Fanning ichki bog'lanishi va fanlararo bog'lanish imkoniyatlaridan maqsadli foydalanish. Ma'lumki, har bir o'rganilayotgan kichik va kichik va yirik o'quv birliklari oldin oldin o'rganilganlarga tayanadi.

Masalan, ona tili o'rganishda o'quvchilar so'z turkumlarini o'rganadilar. Fanlararo bog'lanishda ushbu holatlarni ko'rish mumkin. Ona tili bilan matematika gumanitar fanlar va boshqalar; ikkinchidan, o'quvchilarning tayyorlik darajalarini bilish ham muhim. Keltirilgan fikr-mulohazalarimizdan juda muhim xulosalar olish mumkin, ya'ni, o'qitishning yangi bo'lim, bobni o'rganishga olib kirishga undadi, mavjud bilimlarga yangi bobni, bo'limini o'rganishga etarli bo'lmasa, oraliq tayyorgarlik olib borish va shundan keyingina bilimlarni o'rganishning navbatdagi bosqichiga o'tish lozim.

3. O'quv birliklarni ( mezonlarini) bildirish.

O'quv birliklari o'quvchi o'rganishi lozim bo'lgan tushunchalar, tavsiyalar, qoidalar, qonunlar, hodisalar voqealardan iborat bo'lib, ular orasidagi mantiqiy bog'lanishning ta'minlanishi shu bob yoki bo'limining o'zlashtirishga olib keladi. O'qituvchi bob bo'lim uchun ajratilgan soatlarda o'quvchilar o'rganishi lozim bo'lgan mezonlar hisoblanib, o'quvchi bilimini baholashni chegaraviy qiymati o'lchanadi. O'qituvchi bu paytda sinfga nisbatan o'rtacha baho ishlatmaydi balki aniq o'lchamlarga asoslangan holda ish olib boradi.

O'quv rejasini tuzishda o'qituvchi o'quvchilar bilishi lozim bo'lgan o'quv birliklarini bo'limlar, boblar, choraklar bo'yicha aniqlaydi va o'quvchilarga topshiriq sifatida bo'limning o'rganishgdan oldin vazifa qilib beradi. Berilgan topshiriqlar o'quvchilarning o'zlashtirish reytingni aniqlashda nazorat topshirig'ini o'tkaziladi.

4. Diagnostik tahlil bilimdagi notekisliklarni anglash ularni to'ldirib va navbatdagi o'zlashtirish bosqichiga ko'rsatish maqsadida diagnostikalash amalga oshiriladi.

- O'quvchilar o'rganish darajasini diagnostikalash.
- Bilimlardagi yetishmovchiliklarni oldini olish.
- Aniqlangan yetishmovchiliklarni to'ldirish uchun maxsus topshiriqlar ishlab chiqish.
- Maxsus topshiriqlarni bajarish.
- Soatlarni belgilash.
- Yakuni diagnostik tahlil qilish.

Diagnostik ta'lim texnologiyalarini navbatdagi bosqichi bo'lib, uning asosiy elementlaridan hisoblanadi.

Asosiy o'zlashtirishdagi kamchilkilar soatini aniqlash har bir o'quvchining bilim darajasini aniqlash rejaning borishiga tuzatishlar kiritish yuli bilan ta'lim jarayonining natijasi kafolatlanganligini ta'minlaydi. Test so'rog'i natijalarini diagnostik tahlil qilish ikki muhim vazifani hal qiladi.

1. Qaysi o'quvchi, qaysi birliklarda qiynaladi.
2. O'quvchilar qaysi bilimlarni kengaytirishi lozimligingi aniqlaydi.
5. Tuzatish kiritish. Bo'lim bobning o'zlashtirish darajasining tahlil natijasi 50 dan kam ko'rsatgichni bersa, o'qituvchi ta'lim jarayonini borishda tuzatish kiritish lozim.

Tuzatish kiritishda quyidagilar bajariladi.

Qayta o'rganish lozim bobdan mavzularni o'rgatish metodikasini ishlab chiqish.

- O'quvchilar o'zlashtirishi qiyin bo'lgan mavzularni aniqlash. (diagnostik tahlil asosida).

- O'quv rejasiga tuzatish, kiritish soatini belgilash.

- Zarur hollarda orqaga qaytishni rejalashtirish.

6. Qayta to'ldirish (nuqsonlarni yo'qotish), qayta tuzatish kiritishlardan (korrektsiya) maqsad olingan bilimlardagi kamchiliklarni bataraf etishdan iborat. Kamchiliklarni bartaraf etish to'ldirish asosida amalga oshiriladi.

7. Kuzatishi lozim bo'lgan natijani olish. Bu element yangi pedagogik texnologiyalarning markaziy g'oyasi xisoblanadi. Yangi pedagogik texnologiya ta'lim jarayonini natijasi kafolatli bo'lishini talab qilar ekan, jarayon borishining ko'zda tutilgan maqsadni amalga oshirishi va natijali bo'lishining rejalashtirishni o'qituvchi oldiga vazifa qilib qo'yadi.

So'z turkumlari ustida ishlash uslubining lingivistik asosi so'zlarning texnik-grammatik, morforlogik va sintaktik belgilariga ko'ra turli guruhlarga ajratilishi-so'z turkumlari haqidagi ilm hisoblanadi.

So'zlarning leksik grammatik turkumlariga ajratish uch belgiga:

- leksik ma'noni (nimani ifodalashi ya'ni predmet, harakat, yo holat, belgi kabilarning umumlashtirilgan ma'nolari);

- morforlogik (sonning turli formalar sistemasi);

- sintaktik (turli morforlogik formalarning sintaktik funksiyasi bajarilishi) belgilariga asoslanadi. Demak, so'z turkumlari ustida ishlash o'quvchilarning muayyan gruppadagi so'zlarning umumlashtirilgan ma'nolarini kishilarning aloqa vositasi sifatidagi rolini tushunib olishlariga qaratilishi zarur.

Boshlang'ich sinf o'quvchilar so'z turkumlari (ot, sifat, son, fe'l) bilan umumiy tanishtirilgan so'ng har bir leksik-grammatik qirra alohida o'rgatiladi.

Bu so'z turkumlarini o'rganishning boshlang'ich bosqichidayoq ularni taqqoslashga qulay sharoit yaratadi va bu bilan shakllantiradigan grammatik tushunchaning asosiy tomonlarini aniqroq ajratishga imkon beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ot, sifat, son, fe'lning quyidagi xususiyatlarini bilib oladilar.

1. Soʻz nimani bildirishi (predmet, predmet belgisi, predmet sanogʻi, va tartibi, predmet harakati yoki holati.)
2. Qanday soʻroqlarga javob boʻlishi.
3. Oʻzgarish, oʻzgarmasligi, kanday doimiy kategoriyalari mavjudligi.
4. Gapda asosan qanday boʻlak vazifasida kelishi. Oʻquvchilar mana shu oʻrgangan belgilari asosida soʻz turkumlarini taqqoslaydilar.

Oʻquvchilar nimani oʻrganganlariga qarab har bir soʻz turkumini grammatik belgilari haqidagi bilimlarini asta kengaya, chuqurlasha boradi. Dasturga koʻra 1-sinfda soʻzlar javob boʻladigan morfologik soʻroqlariga qarab klassifikatsiya qilinadi. 2-sinfda “soʻz turkumi” tushunchasi shakllantiriladi. Oʻquvchilar har bir soʻz turkumiga xos ayrim belgilar (soʻz turkumlarining umumlashtirilgan leksik maʼnolari, otlarning birlik va koʻplikda koʻllanishi, boʻlishli va boʻlishsiz feʼllar, ot, sifat son va feʼlning gapdagi vazifasi). Bilan tanishtiriladi. 3-4-sinfda soʻz turkumlarining morfologik-sintaktik xususiyatlari haqidagi bilim chuqurlashtiriladi.

Oʻquvchilar otlarning egalik va kelishiklar bilan oʻzgarishini, sifat va sonning gapdagi vazifasini kelishik olmoshlari va ularning kelishiklar bilan turlanishi , feʼllarda shaxs-son va zamonni oʻrganadilar.

Quyidagi jadvalda boshlangʻich sinf oʻquvchilarining soʻz turkumlari yuzasidagi bilimlari xajmi koʻrsatilgan.

Oʻquvchilarda soʻz turkumlarini bilish koʻnikmasi ularning belgilari yigʻindisini egallashlari asosida shakllantiriladi.

Masalan, gul, guldon, gulladi soʻzlarining kaysi soʻz turkumiga kirishini bilish uchun 2-sinf oʻquvchisi kuyidagicha fikr yuritadi. Nima? Gul, bu soʻz predmet belgisini bildiriyapti, koʻplikda qoʻllanadi. Gullar bu ot, guldon soʻzi kanday? soʻrogʻiga javob boʻlyapti, predmet holatini bildiriyapti, boʻlishsiz shaklda qoʻllanadi, gullamadi bu boʻlishsiz feʼl.

Boshlangʻich sinflar dasturi bu oʻquvchilarni soʻz turkumlari mustaqil va yordamchi soʻz turkumlariga boʻlinishi bilan maxsus tanishtiruvchi koʻzda tutmaydi, ammo oʻqituvchi bolalar bilan amaliy tanishtiriladi. Masalan, oʻquvchilar ot, sifat,

son, olmosh, fe'l gap bo'lagi vazifasida kelishini bog'lovchi gap bo'lagi bo'lmasligini bildiradi.

So'z turkumlarini o'rganishdagi asosiy vazifa o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishlari bilan lug'atini yangi ot, sifat, son, fe'llar bilan boyitish o'quvchilar shu vaqtgacha foydalanib kelayotgan so'zlarning ma'nosini aniq tushuntirishga erishish bog'lanishli nutqda u yoki bu so'zlar o'rinli foydalanish malakasini oshirish hisoblanadi.

Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun so'z turkumlarini o'rganish jarayonida sinonim, antonimlar (terminlar berilmaydi) ustida muntazam ish olib boriladi, o'quvchilar ko'p ma'noli so'zlar, ularning o'z va ko'chma ma'noda ishlatilishi bilan tanishtiriladi. Bunda ta'limning o'quvchilarning shaxsiy tajribalarini bevosita ko'rganlari radiodan eshitganlari kitobdan bilib olganlari bilan bog'lash mumkin.

O'quvchilarda kuzatish muhim narsalarni sezish ko'nikmalarini boyitish ularni nutqini o'stirish vazifasi ham amalga oshiriladi.

So'z turkumlarini o'rganishda tayyorgarlik ishlari 2-sinfdan boshlanadi. 1-sinfda "narsa-buyumni nomini bildiradigan so'zlar", "narsa-buyumni harakatini bildirgan so'zlar", "narsa-buyumni belgisini bildirgan so'zlar" mavzusidagi darslar davomida o'quvchilar Kim? Nima? Kimlar? Nimalar? Nima qildi? Nima qilyapti? Nima qiladi? Qanday? Qanaqa? so'roqlariga javob beradigan so'zlarni bir-biridan farqlashga o'rganadilar, sekin yana shu so'roqlarga javob bo'ladigan so'zlar qaysidir. So'z turkumiga mansub ekanligi haqida tushuncha berilmaydi. O'quvchilar bu sinfda asosan narsa va shu narsaning nomi so'z ekanligini, narsalar jonli va jonsiz bo'lishi mumkin ekanligini bilib oladilar. Nutqimizdagi ayrim so'zlar narsa nomlarini emas, balki narsalarning harakati yoki belgisini bildirish mumkinligini to'g'risidagi tushunchaga ega bo'ladilar. Bu sinfda o'quvchilarga har bir so'z qanday so'roqqa javob bo'lishini va nimani (narsa nomini, harakatini, belgisini) bildirishini o'rganish nazarda tutiladi. O'quvchilarga so'z turkumlari haqida tushuncha berish 3-sinfdan boshlanadi. Dastlab, ot, sifat, fe'l so'z turkumlari

ekanligi haqida umumiy tushuncha beriladi. Keyin bu soʻz turkumlarining oʻziga xos xususiyatlari alohida-alohida darslarda oʻrganiladi.

Ot soʻz turkumini oʻrganishda oʻquvchilar narsa nomlarini bildirib Kim? Nima? Nimalar? soʻrogʻiga javob boʻlgan soʻzlar ot ekanligidan tashqari kishilarning kasb-hunarleri, tabiat hodisalari va boshqa xildagi voqea-hodisa nomlari ham ot turkumiga mansub ekanligini bilib oladilar. Shuningdek, ot turkumidagi soʻzlar bitta yoki bir nechta bir xildagi narsalarni ifodalovchi ham farqlaydilar. Sifat turkumini oʻrganishda Qanday? Qanaqa? soʻroqlariga javob boʻlgan soʻzlar narsalarning belgisini bildirishi haqidagi tushunchalarini mustahkamlash bilan bir qatorda sifat gapda doimo otga bogʻlanib kelishini ham bilib oladilar. Chunki sifat otning belgisidir.

Feʼl turkumini oʻrganishda oʻquvchilar harakatni bildirib nima qildi? Nima kilyapti? soʻroqlariga javob boʻlgan soʻzlar feʼl ekanligini bilib olish bilan birga qarama-qarshi maʼnoli feʼllar, yaqin maʼnoli feʼllar, feʼllarning boʻlishli va boʻlishsiz shakllari bilan ham tanishiladi.

Bajarilgan harakatni bildirgan soʻzga bajarilmagan feʼl-soʻzni taqqoslash ularning –ma qoʻshimchasi bilan (oʻqidi-oʻqimadi) farqlanishi amaliy koʻrsatiladi.

4-sinfda oʻquvchilarning soʻz turkumlariga oid oldingi sinfdagi tushunchalarni eslatib mustahkamlanadi, hamda otlarning egalik qoʻshimchlari bilan qoʻllanishi otlarning kelishik qoʻshimchalari bilan turlanishi, son, olmosh, feʼllarda shaxs–son, feʼl- zamonlari, qoʻshma feʼl va bogʻlovchi haqida yangi maʼlumotlar beriladi.

Oʻquvchilar bu sinfda ot turkumiga qoʻshilib, shu soʻz ifodalangan narsaning egasini-kimga tegishli ekanligini oʻrganadilar. Egalik qoʻshimchalari oxiri unli boʻlgan soʻzlarga esa –m, -ng,-im,-ingiz,-mizlari shaklida;

Oxiri undosh boʻlgan soʻzlarda esa –im,-ing,-i,-imiz,-ingizlari shaklida koʻllanishi misollar bilan tushuntiriladi.. 4-sinf oʻquvchilarining kelishiklari haqida umumiy tushuncha berilganidan keyin har qaysi kelishik koʻshimchalar ekanligi bosh kelishikning qoʻshimchasi yoʻqligi va oʻzbek tilida oltita kelishik borligini bilishlari kerak.

Son-soʻz turkumi 2-3 sinflar uchun yangi mavzu boʻlib oʻquvchilar narsalarning sanogʻini yoki tartibini bildirib Qancha? Nechta? Nechanchi? kabi soʻroqlariga javob boʻlgan soʻzlar son ekanligini bilib oladilar.

Olmoshlardan faqat kishilik olmoshlari oʻrganiladi. Oʻquvchilar men, sen, u, biz, siz, ular soʻzlari kilishik olmoshi ekanligi, kelishik olmoshlari uch shaxs (1.2.3) va ikki son (birlik va koʻplikda) koʻllanishi bilan tanishadilar.

Kishilik olmoshlarini ot-soʻz turkumiga qiyoslab, kelishiklar bilan turlanishi ham amaliy tarzda oʻrgatib boriladi.

Oʻquvchilarning feʼl soʻz turkumi yuzasidan oldingi sinfdagi bilimlarini mustahkamlab feʼllarning shaxs va son qoʻshimchalari bilan turlanishini feʼllarda uch zamon (oʻtgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon) borligi yangi mavzu sifatida oʻrgatiladi, shuningdek, oʻquvchilar ikki va undan ortiq soʻzdan tuzilgan feʼllar qoʻshma feʼl ekanligini ham bilib oladilar.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida yordamchi soʻzlardan faqat bogʻlovchi haqida tushuncha beriladi xolos.

4-sinf oʻquvchilari va, ammo, lekin, biroq, soʻzlari bogʻlovchilar ekanligi bu bogʻlovchilar soʻzlarni soʻzlarga, gaplarni, gaplarga bogʻlash uchun xizmat qilishini bilib oladilar.

Bu oʻrinda shuni alohida taʼkidlash lozimki, soʻz turkumlari oʻrganish darslikda berilgan qoidalarni yodlab olishdan iborat, boʻlmasligi kerak. Balki vazifa oʻquvchilarning ogʻzaki va yozma nutqini oʻstirish lugʻatini yangi ot, sifat, son, feʼllar bilan aytilish oʻquvchilar shu vaqtgacha foydalanib kelayotgan soʻzlarning maʼnosini aniq tushuntirishga erishishi, bogʻlanishi nutqda u yoki bu soʻzlarni oʻrinli foydalanish malakasini oshirish hisoblanadi. Kuzatishlar va boshlangʻich sinf oʻquvchilari bilan oʻtkazilgan suhbat natijalaridan maʼlumki, oʻquvchilar soʻz turkumlarini oʻrganishda bir qator qiyinchiliklarga duch kelmokdalar.

Oʻquvchilar soʻz turkumi haqidagi tushunchasini oʻrganishda kiynaladilar. Ular faqat harakatni bildirgan soʻzlarnigina feʼl turukmiga kiritib, holatni bildirgan soʻzlarni feʼl ekanligini bilmaydilar. Shuning uchun bola yugurdi. Gapidagi yugurudi soʻzini feʼl ekanligini bilgan holda bola oʻtiribdi gapidagi soʻzni feʼl



ekanligini bilgan holda bola o'tirganda guyo harakat kilmayotganday tuyuladi. Ularga sifat so'z turkumini o'rganishda ham ana shunday holatda duch kelamiz.

Umuman yuqorida fikr yuritilgan grammatik tushunchalarni shakllantirishda savollardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. O'qituvchi bolalarga narsalarni yoki narsa tasvirlangan rasmlarni ko'rsatib, bu nima? deb so'raydi. Bu savollarga o'quvchilarga qiyinchiliksiz javob beradilar.

Mavhum tushunchalarni ifodalaydigan, so'zlarga javob berishda o'quvchilar qiynaladilar. Ular har bir so'z buyumni ifodalaydi deb o'ylaydilar. Aslida bu esa, qo'l bilan ushlab ko'z bilan ko'rib bo'lmaydigan tushunchalarni ifodalaydigan so'zlar ham juda ko'p ekanligini tushuntirish kerak.

Umuman boshlang'ich sinflarda so'z turkumlarini o'rganishda darslikdagi qoidalarni yodlashdan ko'ra ana shu qoidalarni o'quvchilar bilan birgalikda ijod kilib yaratilsa, ular ongli o'zlashtiradilar. Undan keyin esa darslikka murojaat qilish, mashklar bajarish maqsadga muvofiqdir. O'quvchilar bilimni puxta mustaxkam bo'lishida qo'yadigan e'tibor berish zarur.

1. Tilni grammatik jihatidan o'rganishda tahlil qilish uchun nutq tanlashinishi kerak. Ma'nosiga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. Ta'limning dastlabki bosqichida o'qituvchi o'quvchilarga narsalarning va ularning nomlarini o'rgatadi. Keyinchalik esa mavhum tushunchalarni o'rgatishga o'tiradi.

2. So'zlarni guruhlariga ajratish va so'z turkumlarini belgilashda o'quvchilarga so'zni gapdan ajratib olishni o'rgatish lozim..

3. O'quvchilarga grammatik tushunchalarni aniqlab solishtirib, taqqoslab va qarama-qarshi ko'yib, tushutirib yaxshi natija beradi. Narsa bildiradigan so'zlarni o'rgatishda shu narsalarni o'zini yoki suratini ko'rsatish mumkin. Keyinchalik fe'lni o'rganishda o'zakdosh bo'lgan so'zlarni otga qiyosladi. Masalan, olma ol, arrala arra singari sifatni o'rganishda esa o'zakdosh bo'lgan ot va fe'lga kiyoslash mumkin. Masalan kiz, kizil, kizdir; kor, kora, korala.

4. Narsa harakat va belgi bildiradigan so'zlarni ko'rgazmali qurollar yordamida tushuntirish ham yaxshi natija beradi. Lekin ko'rsatib bo'lmaydigan mavxum so'zlarni tushuntirishda Kim? Nima? So'rog'iga javob bo'ladigan barsa

soʻzlar ot. Ot deyiladi, Nima qildi? Nima qilmokchi? Nima qiladi? Soʻrogʻiga javob boʻladigan soʻzlar feʻl ekanligini taʻkidlab oʻtiladi.

5. Oʻquvchilar turli qoʻshimchalar bilan kelgan soʻzlarga soʻroq berib guruhlariga ajratishda qiynaladilar. Shuning uchun ularga soʻzlarni oʻrgatishda faqat qoʻshimchasiz koʻrinishdagina emas, balki turli qoʻshimchalar koʻrinishlarini oʻrgatish lozim

Oʻquvchilar soʻz turkumlarini farqlaydigan boʻlganlaridan keyin soʻz shaklining oʻzgarish ustida ish olib boriladi. Lekin soʻzning mohiyatini ochish masalasiga yetarlicha eʻtibor berilmaydi. Shuning uchun oʻquvchilar soʻz turkumining oʻziga xos belgilarini yetarlicha farqlay olmayaptilar.

Kishilik olmoshi ish harakatni bajargan shaxs va sonni koʻrsatish uchungina qoʻllanadi. Oʻquvchilar buni sekin-asta oʻzlashtirib boradilar. Shuning uchun har bir feʻl shaklini oʻrganishda unga tegishli kelishik olmoshlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Odatdagi darslarda berilgan namuna asosida soʻz shakllarini oʻzlashtirish mashqlari bajariladi. Bunday mashqlar oʻquvchilarni ogʻzaki fikrlashga undaydi.

Shuning uchun mashqlarni bajarishda maʼlum bir soʻzni turli shaklda koʻllash va shakllardagi soʻzlarni bir shaklda keltirish ishlaridan foydalanish kerak. Bu ishda soʻzning dastlab qanday shaklda kelganligi, kanday savolga javob boʻlishi aniqlanadi. Keyin esa shaklning oʻzgartirib unga beriladigan savol aniqlanadi.

Bunda sonning shakli va mazmunini bir vaqtda oʻrganishga imkon boʻladi. Oʻquvchilar sonning oʻrganishi va oʻzgarmasligini bilishlari kerak.

Sonning oʻzgarishi deganda nimani tushunamiz? Bu, avvalo, shakli va mazmunini boshqacha boʻlib kolishini koʻrsatadi.

Masalan: kitob soʻzning bosh shakli birlikda kitoblar-son qoʻshimchasi –lar kelgan koʻplikda, bitta emas bir nechta kitoblarni ifodalaydi.

Darslarda grammatik tahlilga ham eʻtibor beriladi. Bunda har bir soʻz va son aniqlanadi.

Grammatik va morfologik vazifalarni bajarish uchun maʼlum maʼnoda grammatik kategoriyalarni bilish kerak.

Soʻz turkumlarini oʻrganishda soʻzga savol berib qanday shaklda kelganligi aniqlanadi. Soʻng oʻzgarish-oʻzgarmasligi, soʻz nimani ifoda etishi va grammatik belgilar sanab oʻtiladi. Ana shunday tahlil natijasida oʻrganilayotgan soʻz turkumini oʻquvchilar puxta oʻzlashtiradilar. Masalan, Qanday? Qanaqa? soʻroqlariga javob boʻladigan soʻzlar narsalarning belgisini bildiradi. Belgini bildiradigan soʻzlar sifat deyiladi.

Soʻz turkumini aniqlaganlaridan keyin uning oʻziga xos belgisini topadilar. Oʻquvchilarning soʻz turkumlari haqidagi tushunchalarini mustahkamlash uchun mashqlar bajaradi. Soʻz turkumini aniqlashga oid mashq turlaridan biri gaplardan tegishli soʻzlarni ajratib olishdir.

Oʻquvchilarga turli soʻz turkumiga xos soʻzlar aralash beriladi. Ularga aytilgan soʻz turkumlariga oid soʻzlarni tanlab ajratib yozadilar. Har bir soʻz turkumiga oid soʻzlarni aloxida ustunlarda yozib aytiladi, shu aytilganlar asosida oʻquvchilar bilimi mustahkamlanib boradi.

## **1.2. Son – soʻz turkumi haqida maʼlumot**

Boshlangʻich sinf ona tili darslarida oʻquvchilar soʻz turkumlari xususida maʼlumot oladilar. Oʻzbek tilida jami 12 ta soʻz turkumi boʻlib, boshlangʻich sinf oʻquvchilari boshlangʻich sinfdalik davrlarida ularni hammasi bilan toʻliq tanishish imkoniyatiga ega boʻlmaydilar. Balki ular faqat mustaqil soʻz turkumlari, ayrim yordamchi soʻz turkumlari haqida maʼlumotga ega boʻladilar. Ana shunday soʻz turkumlaridan biri son – soʻz turkumi boʻlib, biz ushbu bobimizda aynan shu soʻz turkumi va uni oʻqitish uslubiyoti xususida fikr yuritamiz.

Oʻylaymizki, bu bobda ilgari surgan fikr va mulohazalarimiz aynan shu mavzu yuzasidan boshlangʻich sinf oʻquvchilariga nazariy manba vazifasini oʻtasa ajabmas.

Predmetning miqdorini, sanogʻini, joylashish tartibini, baʼzan ish-harakatning bajarilish tartibini, miqdoriy belgisini bildiradigan mustaqil soʻz turkumi son deyiladi. Son Necha? Nechanchi? Nechta? Qancha? kabi soʻroqlardan biriga javob beradi.

Son otga bog'lanib, u ifodalagan predmetning konkret miqdoriy belgisini, ba'zan fe'lga bog'lanib, u ifodalagan harakatning miqdoriy belgisini anglatadi: *to'rtta daftar, ikki oy o'qidi, birinchi keldi* kabi. Arifmetik amallarda esa son otga, fe'lga bog'lanmagan holda keladi. Bunda son ifodalagan miqdor mavhum ma'noga ega bo'ladi: ikki qo'shuv uch besh. Arifmetik hisoblashda qanday predmetlar miqdorining qo'shilishi bilan besh hosil bo'lishi aniq emas.

Sonlar ko'pincha raqamlar bilan yoziladi:

1) arab raqamlari bilan *0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9*.

2) rim raqamlari bilan: ***birliklar***: *I (1), II (2), III(3), IV(4), V (5), VI (6), VII (7), VIII (8), IX (9)*; ***o'nliklar***: *X (10), XX(20), XXX(30), XL(40), L (50) LX (60), LXX (70), LXXX (80), XC(90)*; ***yuzliklar***: *C (100), CC (200), CCC (300), CD (400), D (500), DC (600), DCC (700), DCCC (800), CM (900)*; ***mingliklar***: *M (1000), MM (2000), MMM (3000) ...*

Badiiy asarlarda sonlar so'z bilan yoziladi: ***To'rt yil kutdi***.

Nutqimizda tez-tez ishlatiladigan **23** ta sodda son bo'lib, boshqa sonlar shularning qo'shilishidan hosil bo'ladi: *nol, bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti, etti, sakkiz, to'qqiz, o'n, yigirma, o'ttiz, qirq, ellik, oltmish, etmish, sakson, to'qson, yuz, ming, million, milliard*.

Eski yozuv tilida tuman (o'n ming), lak (yuz ming) kabi sonlar bo'lgan. Tarixiy asarlarda manna shu sonlar uchraydi.

Son predmetning aniq (beshta daftar) yoki noaniq (besh-oltita daftar) miqdorini bildirishi mumkin. Lekin har ikki holda ham son yozuvda raqam bilan ifodalanagan. Ravish so'z turkumiga doir ko'p, oz, kam, mo'l kabi so'zlar ham predmetning noaniq miqdorini bildiradi, lekin bu so'zlar raqam bilan ifodalanmaydi. Shuning uchun ham bu so'zlar son so'z turkumiga oid emas.

Son so'z turkumi o'ziga xos quyidagi leksik-grammatik xususiyatlarga ega:

1. Sonning leksik-semantik xususiyati uning belgi ma'nosini ifodalashidir, ya'ni predmetning miqdor, sanoq va joylashish tartibiga ko'ra (ba'zan harakatning joylashish tartibi, miqdoriy belgisi) belgisini anglatadi. Demak, son miqdor tushunchasining nomi bo'ladi.

2. Son ma'no jihatdan predmetning sanog'ini, donasini, taxminiy miqdorini, umumiy miqdori (jamligi), taqsimlanish miqdori, joylashish tartibi; shuningdek ish-harakatning bajarilish tartibi, miqdori kabi modal ma'nolarni ifodalaydi. SHu ma'no xususiyatlariga ko'ra son ikki turga: sanoq son va tartib sonlarga bo'linadi. Sonning ma'no turlarini hosil qiluvchi maxsus modal shakl yasovchi affikslar mavjud: uchta, beshovlon, ikala, yuzlab, to'rttadan, uch-to'rt, o'ninchi kabi. Bu affikslar faqat sonlargagina qo'shiladi.

3. Son morfologik jihatdan o'zgarmaydi, ya'ni egalik, kelishik, ko'rlik affikslarni olmaydi, chunki son asosan otga bog'lanib kelib, aniqlovchi vazifasini bajaradi: *Uy egasi Otabekning yoniga ikkita yostiqliq olib qo'ydi va bittani o'z yonboshiga ham oldi. (A.Qodiriy.)*

Son hech qachon belgi ifodalovchi so'zni o'ziga tobe qilib kelmaydi - aniqlovchi olmaydi.

Son ba'zan fe'lga bog'lanib kelib, harakatning miqdoriy belgisini anglatganda, hol vazifasini bajaradi: *Otabek qutidor tomonidan quvilganidan keyin, Marg'ilonga etti-sakkiz marta kelibdi (A.Qodiriy.)*

4. Son bog'lanib kelgan ot qo'llanmaganda, otga qo'shilib kelgan so'z o'zgartiruvchi affikslar, ya'ni egalik, kelishik hamda shakl yasovchi ko'plik affiksini olishi mumkin. Bunday morfologik jihatdan o'zgargan son otlashgan son sanalib, gapda ot bajargan ega, to'ldiruvchi, qaratqich-anqiqlovchi, kesim kabi sintaktik vazifalarni bajaradi: *Birov tosh, birov gul, o'z joyida ikkovi ham yaxshi (SHukrullo). Bilagi zo'r birni yiqar, bilimi zo'r mingni. (Amir Temur o'gitlari). O'nning yarmi besh.*

Otlashgan son fikrni stilistik jihatdan ixcham obrazli ifodalashi uchun xizmat qiladi. (Maqol, matal, aforizmlarda ko'p uchraydi) Sonning hamma turlari ham morfologik jihatdan o'zgarmaydi (Chama son –tacha, -lab, -lar kasr songa qo'shilmaydi).

5. Sonlarning hisob so'zlari (numerativlar) bilan birga qo'llanishi uni boshqa so'z turkumlaridan ajralib turuvchi o'ziga xos belgilaridan biri sanaladi. Hisob so'zlari ot so'z turkumiga doir bo'lib, u son bilan bog'lanib kelgan ot va fe'l

orasida ishlatiladi: ikki tup daraxt, besh kilogramm olma, o'n kilometr yurdi, to'rt sahifa o'qidi kabi.

Sonlar hisob so'zlari bilan ham, hisob so'zlarisiz ham qo'llanadi (Bu so'zlar haqida quyida to'xtalamiz).

6. Son so'z yasaliş tizimiga ega emas. Boshqa so'z turkumlaridan son yasalmaydi. Lekin sondan boshqa so'z turkumlari yasaliş mumkin: birlik, beshlik (ot), ikkilan (fe'l), bittalab (ravish) kabi.

### **Sonning ma'no turlari**

Son ma'no jihatdan va grammatik xususiyatlarga ko'ra ikki guruhga bo'linadi: sanoq sonlar va tartib sonlar.

Sanoq son predmet yoki ish-harakatning sonini, miqdorini, belgisini bildiradi: uch bola, ikkita kitob, besh tonna paxta, olti kilogramm sotib oldi kabi.

Sanoq sonlar hisob so'zlarisiz va hisob so'zlari bilan qo'llanish xususiyatiga ega: ikkita qalam, besh talaba, o'ntacha o'quvchi - hisob so'zlarisiz; olti tup daraxt, uch litr sut, o'n oy o'tdi, ikki marta chaqirdi - hisob so'zlari bilan kelgan.

Hisob so'zlari ko'p hollarda predmetning, ba'zan ish-harakatning hisobini ko'rsatuvchi o'lchov birligi bo'lib, u orqali predmetning ish harakatning miqdori belgilanadi. Hisob so'zlar sanoq son bilan sanaladigan predmet, ish-harakat anglatuvchi so'z orasida kelib, ularni og'irligiga, uzunligiga, hajmiga, vaqtiga va shunga o'xshash xususiyatlarga ko'ra o'lchovini bildiradi: ikki bosh uzum, uch kilogramm olma, bir qultum suv, ikki gektar er kabi.

O'zbek tilida hisob so'zlari ot so'z turkumiga oid bo'lib, ular qo'llanilishiga ko'ra quyidagi ma'nodagi otlarni o'z ichiga oladi:

1. Predmetni yakkalab, donalab hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so'zlari: dona, nusxa, bosh, tun, nafar kabi.

2. Butunning bo'lagini hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so'zlari: burda, parcha, varaq, og'iz, luqma, siqim, tilim, chimdim, harch, qop, arava, mashina, chaqmoq kabi.

3. Juft predmetlar hisobini ko'rsatuvchi hisob so'zlari: juft, par, jo'ra kabi.

4. Og'irlikni o'lchash uchun ishlatiladigan hisob so'zlari: gramm, kilogramm, tsentner, tonna kabi.

Eski o'zbek tilida misqol, qadoq, botmon kabi otlar og'irlik miqdorini hisoblash uchun ishlatilgan: Namangan va Andijon tumanlarida ikki ming botmongacha er sug'orilar edi. (A.Qodiriy)

5. Uzunlik o'lchovi uchun ishlatiladigan hisob so'zlari: millimetr, santimetr, metr, kilometr, qadam, qarich, quloq kabi.

Bu hisob so'zlarining gaz, tanob, tosh, chaqirim kabi sinonimlari mavjud bo'lib, hozir bu so'zlar arxaiklashgan hisob so'zlari sanaladi.

6. Suyuqlik hajmini ifodalovchi hisob so'zlari: litr, kosa, stakan, piyola, qoshiq, xo'plam, hovuch, chelak kabi.

7. Pul qiymatini ifodalovchi hisob so'zlari: *tiyin, so'm, dollar* kabi.

*Tanga, chaqa, tilla* so'zlari ilgari pul qiymatini hisoblash uchun ishlatilgan bo'lib, hozirgi kunda arxaik so'zlar qatoridan o'rin olgan: Solix mahdum ... bir tangalik go'sht, sakkiz pullik piyoz olib hovliga kirdi (A.Qodiriy).

8. Vaqt o'lchovi uchun ishlatiladigan hisob so'zlari: asr, yil, oy, hafta, sutka, kun so'zlari hamda sutkaning bo'laklarini ifodalovchi soat, daqiqa, minut, sekund kabi so'zlar kiradi.

Asr, yil, oy, hafta, sutka, kun so'zlari turli kelishik affikslarini olib kelishi, shuningdek, ko'makchilar bilan birga ham qo'llanishi mumkin: Oybek 30-yillardan boshlab Alisher Navoiy hayoti va ijodi to'g'risida materiallar yig'a boshlagan edi (Z.Saidnosirova).

9. YOsh hisobi uchun qo'llanadigan hisob so'zlari: yosh, yashar, kunlik, oylik kabi.

10. Harakat miqdorini ko'rsatish uchun ishlatiladigan hisob so'zlari: marta, karra, bor, hissa, qatla, daf'a, sidra kabi.

Sanoq son ma'no xususiyatlariga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: 1) miqdor son; 2) dona son; 3) Chama son; 4) jamlovchi son; 5) taqsim son.

Miqdor son bir turdagi predmetlarning umumiy miqdorini, baʼzan ish-harakatning umumiy miqdoriy belgisini anglatadi: uch kishi, ikki qop guruch, besh yil oʻqimoq kabi.

Sizga munosib yigit, balki etti iqlimda ham yoʻqdir (P.Qodirov). Tejamkor kishi pulini keragidan ortiqcha sarflamaydi, oʻn soʻmga olinadigan narsa uchun hovliqib yuz soʻm sarf etmaydi («Odob boʻstoni va axloq gulistoni»).

Miqdor sonlar hisob soʻzlarisiz va hisob soʻzlari bilan qoʻllanadi.

Miqdor sonni hosil qiluvchi shakl yasovchi affikslar mavjud emas.

Dona son bir xil predmetlarning yakkalab, donalab sanaladigan umumiy miqdorini anglatadi.

Dona son miqdor son negiziga –ta affiksini qoʻshish bilan yasaladi: oʻnta oʻquvchi, beshta daftar kabi. Shuningdek, dona son miqdor sondan soʻng donalikni ifodalaydigan dona, tup, nusxa, nafar, tuyoq, bosh kabi hisob soʻzlarini keltirish bilan hosil qilinadi: yuz nusxa kitob, ikki bosh qoʻy, besh dona qalam, uch tup daraxt kabi.

*Gʻavvoslarning rahmi kelib, unga bitta qimmatbaho tosh hadya qildilar («Oz-oz oʻrganib dono boʻlur»). Vaqti kelsa, oʻnta quruq gapdan bitta dalil, oʻnta qonun-qoidadan bitta amaliy mashgʻulot aʻlo (A.Soliev). Gulshan kirganida uch nafar kaniz sanoliya tikmoqda edi (AQodiriy). Javonda Abu Ali ibn Sino hazratlarining tibbiyot masalalariga oid yigirma jildlik «Kitob ush shifo»si turardi. (O.Yoqubov).*

Jamlovchi son bir turdagi predmetlarning miqdorini jamlab, toʻdalab koʻrsatadi.

Jamlovchi son miqdor songa quyidagi affikslarni qoʻshish bilan hosil qilinadi:

1. Miqdor songa –ov affiksini (ikkidan ettigacha boʻlgan sonlarga) qoʻshish bilan: ikkov, uchov, toʻrtov, beshov, oltov, ettov kabi. Baʼzan oʻn sonidan ham yasaladi oʻnovi kabi. Bu affiks bilan yasalgan son otlashgan holda kelib, doimo egalik affikslari bilan birga (I shaxs birlik egalik affiksidan tashqari) qoʻllanadi. Yaʼni ular koʻpchiligi predmetning miqdoriga koʻra belgisini koʻrsatmaydi, miqdor maʼnosi bilan birga predmetlik maʼnosini anglatadi: Ular ikkovi birining ogʻzidan



biri olib, Qobilni past urib, Anvarni maqtab ketdilar (A.Qodiriy). Maqsud akaning qaytganini eshitganimiz hamon Oybek men Mirtemir uchchovimiz suyunib yugurdik (Z.Saidnosirova).

2. Miqdor songa –ala affiksini qo’shish bilan yasaladi: ikala, uchala, to’rtala, beshala kabi. Olti va etti sonlariga ham qo’shiladi. (Ikki va olti sonlariga qo’shilganda negiz oxiridagi i unlisi tushib qoladi). To’shaboy ikala otni jilovidan ushlab tolning naryog’iga olib o’tib ketdi (S.Ahmad).

3. Miqdor songa -ovlon affiksini qo’shish bilan yasaladi: ikkovlon, uchovlon. Bu affiks ham ikkidan ettigacha bo’lgan sonlarga qo’shiladi: Oltovlon ola bo’lsa og’zidagin oldirar, to’rtovlon tugal bo’lsa tepadagin endirar (Maqol).

Otga bog’lanib kelgan jamlovchi son sifatlovchi aniqlovchi vazifasida keladi: Haqiqat uchun, Vatan uchun jonini ayamagan ikala pahlavon sal o’tmay jangda mardona halok bo’ldi. (Shukrullo)

Lekin jamlovchi son gapda ko’pincha ega, to’ldiruvchi, qaratqich-aniqlovchi, kesim vazifasida keladi: Ikkovlari kech salqinda adir tagida bitta-bitta yurib ketishyapti (S.Ahmad.). Uchalasining maqsadi bir. Talabalarning beshoviga ham mukofot topshirildi.

Taqsim son predmetlarning miqdor jihatdan teng taqsimlanishini, guruhlanish miqdorini anglatadi.

Taqsim son quyidagicha yasaladi:

1. Miqdor son negiziga –tadan affiksini qo’shish bilan: Azim har elkasiga to’rttadan odam sig’adigan yigit bo’libdi (A.Qahhor).

2. Donalik anglatadigan sonni takrorlash yo’li bilan: bitta-bitta, uchta-uchta kabi. Ba’zan so’nggi qismga –dan chiqish kelishigi affiksi qo’shilishi ham mumkin: bitta-bittadan, uchta-uchtadan kabi.

3. Miqdor sonlarning takrorlanishi bilan yasaladi: ikki-ikki, uch-uch kabi.

Chama son predmetning, ish-harakatning noaniq, taxminiy miqdorini anglatadi.

Chama son quyidagicha yasaladi:

1. Miqdor son negiziga –tacha affiksini qo'shish bilan: beshtacha, o'ntacha, yuztacha kabi. Ikki tomonga uch qavatdan oltmishtacha joy qilingan. (A.Q.)

Hisob so'zlari bilan birga qo'llanadigan sonlarda –cha affiksi hisob so'ziga qo'shilib keladi: Ikala to'rg'ay taxminan bir-birlaridan ellik metrcha narida uchib sayrashyapti (S.Ahmad).

2. Miqdor son negiziga –larcha affiksini qo'shish bilan (miqdor jihatdan yirik sonlarga qo'shiladi): o'nlarcha, yuzlarcha, minglarcha kabi: Menga bir bechora, notavonning sevinch ko'z yoshi minglarcha qimmatbaho toshlardan afzaldir («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»).

3. Miqdor son negiziga –lab affiksini qo'shish bilan (bu affiks ham miqdor jihatdan yirik sonlarga qo'shiladi): o'nlab, yuzlab, minglab kabi: O'zbekistonda butun jahondan yig'ilgan yuzlab millatlar va elatlar yashaydi («O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharh»).

4. Ketma-ket kelgan ikki sonni juft holda keltirish orqali: bir-ikki, uch-to'rt kabi: Hanifa xolaning sandig'ida bo'lajak kelinga atab yig'ilgan besh-o'n kiyimlik atlas va boshqa yaxshi matolar bor edi (B.Qodirov).

Ba'zan –ta affiksi bu juft sonlarning har bir qismiga yoki ikkinchi qismiga qo'shilib keladi: bitta-ikkita, uch-to'rtta kabi: Daraxtlar orasidan sarg'ayib bir-ikkita yulduz ko'rindi (O'.Umarbekov).

5. Hisob so'zlari bilan qo'llangan miqdor sonlarga –lar ko'plik affiksi hamda kelishik affiksini qo'shish bilan yasaladi. Bunda ko'pincha vaqt bildiruvchi hisob so'zi oldin keladi: *Saida uyga kech soat o'n birlarda qaytdi (A.Qahhor)*. bunda ish-harakatning bajarilishidagi payt, vaqtga nisbatan taxmin ma'nosi ifodalanadi.

Ba'zan bu affikslar hisob so'ziga ham qo'shiladi: Ro'zimat qorong'ida ko'ziga yigirma besh yoshlarda ko'ringan edi. (A.Qahhor)

5. Chama sonlar taxmin ma'nosini ifodalovchi *Chamasi, chog'li, taxminan, qariyb, shuningdek yaqin, ortiq, kamida* kabi so'zlarning ishtiroki bilan ham hosil qilinadi: *Maktabda o'n chog'li bola yig'ilgan (O). Ko'chalarning ikki yuziga sakson besh mingdan ortiqroq ko'chat o'tkazildi (A.Qahhor)*.

Xulosa, boshlang'ich sinf ona tili darslarida son so'z turkumi yuzasidan dastlabki tushunchalar beriladi va ularning bu xususidagi bilim doiralari kengayishiga erishiladi.

## **2-bob. Interaktiv metodlarni ona tili darslarida son soʻz turkumini oʻtish jarayonida qoʻllash usullari**

### **2.1. Son-soʻz turkumini oʻtishda interaktiv usullardan foydalanib, oʻquvchilar faolligini oshirish yoʻllari**

Boshlangʻich sinf ona tili darslarida son soʻz turkumini oʻqitishdan maqsad oʻquvchilarni narsa – buyumning son-sanogʻini ifodalovchi soʻzlar olamiga olib kirish, ulardan nutqda toʻgʻri va oʻrinli foydalana olish imlo savodxonligini oshirish va talaffuz meʼyorlarini shakllantirishdir.

Avvalo, shuni taʼkidlash kerak-ki, oʻquvchilar son yuzasidan boshlangʻich sinfda zaruriy maʼlumotlar bilan qurollantiriladi. Keyinchalik oʻquvchilar nutqiy faoliyatida foydalanishda katta qiyinchiliklarga duch kelmaydilar. Shuning uchun izchil ravishda bu soʻz turkumidan oʻquvchilar egallashi zarur boʻlgan bilimlar silsilasi uncha koʻp emas. Ular asosan, oldin soʻz turkumlari boʻyicha egallagan bilimlarni takrorlaydilar, hamda son soʻz turkumi, uning ichki maʼno guruhleri, qoʻshma va juft sonlar, ularning imlosi va talaffuziga oid zaruriy maʼlumotlarni egallaydilar.

Takrorlash va oldingi sinflardan egallangan bilimlarga asoslangan holda oʻquvchilarni miqdor va tartibni bildirib, Necha?, Nechanchi?, Qancha? soʻroqlariga javob boʻladigan soʻzlar sonlar ekanligi, sonlar sanoq, dona, taqsim, Chama, jamlovchi, kasr, tartib sonlar kabi maʼnoviy guruhlariga boʻlinishi xususida xulosaga keladilar.

Sonlarning maʼno guruhlarini oʻrganish natijasida oʻquvchilar berilgan soʻzlarni bir turdagi narsa-buyumning umumiy maʼnolarini anglatgan sonlar (toʻrt kishi, sakkiz yil, oʻn kun kabi), bir xil narsa-buyumlarning yakkalab, donalab, sanaladigan umumiy miqdorini anglatgan sonlar (uchta qalam, yigirmata qoramol, oʻttiz uchta sinf kabi), taxminiy miqdorni anglatadigan sonlar (oʻttiztacha, yuztacha, minglarcha kabi), miqdorni bir guruhga birlashtirib taqsimlashni ifodalaydigan sonlar (ikkov, toʻrtov, oltovlon kabi), narsa-buyumlarni taqsimlashni ifodalaydigan sonlarga (oʻntadan, yuztadan, mingtadan kabi) ajratadilar va ularni qiyoslash natijasida maʼno nozikligini bilib oladilar.

Berilgan sonlarga ma'nodoshlar topish ham o'quvchilarning o'quvchilarning so'z boyligini oshirishda muhim o'rinni egallaydi. Masalan: beshta daftar, o'nta bola, mingta qo'y, uch yuz ellik tup olma daraxti kabi birikmalar bilan almashtiriladi. O'quvchilar Chama son hosil qiluvchi – tacha qo'shimchasi o'rniga -ta qo'shimchasi yoki yaqin so'zini qo'llashlari ham mumkin. Masalan: yigirmatacha so'zini o'rniga yigirmataga yaqin, eliktacha so'zini o'rniga ellikka yaqin kabi.

O'quvchilar lug'atini sonlar bilan boyitishda berilgan qoliplar asosida so'zlar hosil qilish ham o'ta foydalidir. Masalan: “bir-ot-lar” (bir zamonlar, bir vaqtlar kabi), “dona-son-ta” (o'nta, yuzta), “dona-son-larcha” (o'nlarcha, millionlarcha) kabi.

Son so'z turkumini o'rganishda o'yin-topishmoqlar, topishmoqlardan keng foydalaniladi. Bu topishmoqlar sonlarning ichki ma'no guruhlari, ma'lum bir ma'no guruhidan boshqa bir ma'no guruhidagi so'zlar hosil qilish, sonlar sinonimiyasi, ularning imlosi kabi muhim maslalarga bag'ishlansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Mazkur so'z turkumini o'rganishda ayniqsa, “Maktabimiz tarixi”, “Qishlog'imiz tarixi”, “Xo'jaligimiz tarixi”, “Maktabimiz ustaxonasi jihozlarini topshirish va qabul qilish” kabi mavzularda matnlar yozdirish o'ta foydalidir.

Umuman olganda 4-sinf ona tili darslaridan son so'z turkumini ma'lum bir izchillikda, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda olib boriladi. Bu esa o'quvchilarning ushbu mavzuni yanada yaxshi o'zlashtirishlariga ijobiy ta'sir etadi. Shuning uchun ushbu bobimizda son-so'z turkumini o'rganish masalasi yuzasidan nazariy ma'lumot berdik. Bu esa ushbu mavzu bo'yicha o'quvchilarning bilim doiralarini kengaytirishiga sabab bo'ladi.

4-sinfda so'z turkumlari bo'limiga katta soat ajratilgan masalan, so'z turkumlariga “So'z turkumlari”ga jami: ot so'z turkumiga esa 40 soat, sifat so'z turkumiga 17 soat, son-so'z turkumiga 11 soat, kishilik olmoshlariga 11 soat, fe'l so'z turkumiga 28 soat vaqt ajratilgan. Shundan son so'z-turkumi xususida to'xtaladigan bo'lsak, o'quvchilar bu so'z turkumi bilan tanishish jarayonida quyidagilarni o'rganadilar.

Sonning shaxs va narsaning sanog'ini, miqdorini va tartibini bildirishi tartib sonlarning imlosi, sonlarning otga bog'lanib kelishi, sonlarning otga ohang yordamida bog'lanishi, sonlarning gapda ikkinchi darjali bo'lak vazifasida kelishi, sonlarning o'zi bog'langan so'z bilan birikma tarzida yozish, sonlarning yozuvda harfiy ifoda, arab, rim raqamlari bilan ifodalanishi, sonlarning yozilishi (etti, sakkinchi, ikki ming uchinchi yil, IV-sinf).

Sonlarning metr, gramm kabi so'zlar bilan kelganda bitta so'roqqa javob bo'lishi (amaliy), ikkov, o'rtacha kabilar.

Son perdmelarini mavhum sanog'ini tartibini bildirishi bilan boshqa so'z turkumlaridan ajralib turadi, sanaladigan predmet nomini anglatuvchi ot bilan qo'llanmagan ( besh,o'n, beshdan ikki sonlar matematik son ma'nosini, ifodalab, mavxum ma'noli bo'ladi, va faqat so'zlarning nomini anglatadi. Sonlar sanaladigan predmetlar nomini anglatuvchi so'zlar bilan qo'llanganda.

- sanoq sonlar, -ol,-ola qo'shimchalarining qo'shilishidan narsa –buyumning gruppasini to'dasini ko'rsatuvchi kategoriya hosil qilinadi: ikkalasi uchchalasi.

- sanoq sonlar –ta, -cha, -tab qo'shimchalarining qo'shilishidan parametrlarning taqsimini ko'rsatuvchi kategoriya hosil qilinadi: birinchi o'n beshinchi.

- Sanoq sonlarga –ta, -cha, -lab, qo'shimchalarini qo'shilishidan narsa buyumning gruppasini, taqsimini, ko'rsatgichi kategoriya hosil qilinadi: o'ntacha, minglab.

- Sanoq sonlarga –ta, -dan qo'shimchalari qo'shilishidan predmetlarning taqsimini ko'rsatgichi kategoriya hosil qilinadi: ikkitadan, beshtadan.

1. Sonlarning juft, metr, dona kabi hisob so'zlari (numerativlash) bilan birga qo'llanishi, ularning boshiga so'z turkumlaridan ajratuvchi o'ziga xos belgilaridan biridir.

2. So'z o'rgatuvchi qo'shimchalar sonining hamma turlariga ham otlardagi funktsiyasi kabi qo'shilavermaydi.

3. Sonlar so'z yasovchi qo'shimchalarni qabul qilmaydi. Boshqa so'z turkumlaridan son yasalmaydi

Sondan turli so'z turkumlariga oid so'zlar yasalishi mumkin: uch-lik, ikki-lan-moq. Ba'zi sonlar hech qanday qo'shimchalarsiz ham ot vazifasida ishlatilishi otlashishi mumkin. Qiriq, yetti, yigirma ( a'za marosimlari nomlari) va boshqalar.

### **Sonlarning sintaktik xususiyatlari quyidagicha:**

1. Sonlar odatda otlar bilan qo'llanib, aniqlovchi bo'lib keladi. Bu ularning asosiy sintatik xususiyatlaridan biridir.

2. Sonlar hech qachon o'zicha belgi ifodalovchi so'zlarini tobe qilib kelmaydi. –aniqlovchi olmaydi.

3. Sonlar ot oldida aniqlovchi vazifasida kelganda ko'pincha keyingi hokim bo'lakka nisbatan ot bilan birikmali bo'lak xosil qilganda munosabatga kirishiladi: -uchta odam kelmadi gapini aniqlovchisiz-odam kelmadi holida qo'llab bo'lmaydi. Bunday holatlarda ot oldidagi son-aniqlovchi birga qo'llanishi shart.

4. Ba'zan son, sifat birga otning aniqlovchi vazifasida kelishi mumkin. Bunday vaqtda o'zbek adabiy tili normasiga ko'ra ko'pincha oldin son-aniqlovchi keyin sifat aniqlovchi keladi. Ikkita baland uy, 3 ta ilg'or terimchi qizlar, o'nta paxta gulli piyola.

5. Sonlar gapda ko'pincha aniqlovchi kesim, ega, to'ldiruvchi vazifasida keladi.

Masalan: *Bir chetda gulzor oralab, gul terib yuribdi. (O) Xotinning joni bitta emas, o'n ming bitta (AQ)*

*Hozir uyda shunaqa antiqa bodiringdan to'rttasi bor. (Said Axmad).*

*Nimalarni o'ylayotgani ikkalasiga ham ayon. (G'.G')* Bir-biriga o'rtoq sonlarni yuqorida qayd qilingan grammatik xususiyatlari uning turli ichida o'ziga xos xususiyatlar talab etiladi.

Bu xususiyatlar ularning turlari, ichida sonlarning ham yoki ko'p miqdorda ko'rinishlariga ularning tuzilishi turlariga ko'ra yana turli xususiyatlarga ega bo'ladi. Shuning uchun bu masalalar haqida tegishli bo'limlarda to'laroq ma'lumot beriladi.

Ta'lim jarayonida bugun o'qituvchilar dars davomida interfaol usullardan keng foydalanishmoqda. Bu usullarning qulayligi bir soatlik dars davomida barcha

o`quvchilarni darsga qiziqтира olish, ularga kerakli ma`lumot va bilimlarni bera bilish va barchani baholash imkoniyati mavjud.

Ma`lumki, ona tili va o`qish darslarida yangi mavzu bo`yicha nazariy tushunchalar shakllantirilib, muayyan ko`nikmalar hosil qilinadi. So`ng o`quvchilarning og`zaki va yozma nutqini shakllantirish bosqichiga o`tiladi.

Ana shunday usullar va ularning qulayliklari xususida ishimizda to`xtalib o`tmoqchimiz.

### **«Diagramma Vena»**


Bu usuldan ham boshlang`ich sinf o`qish darslarida foydalanish mumkin.

Bu metodka ikkita oval figuralarning kesishmasidan foydalaniladi. Doirachalar uchta bo`lib, bunda birinchi va uchinchi doirachalar ichiga berilgan berilgan topshiriqning farqli jihatlari yoritilsa, o`rtadagi doirachaga ularning umumiy o`xshash tomonlari yoziladi. Bu usulni asosan ikki toifadagi narsalarni farqlash uchun yoki xususiyatlarni ajratishni o`rganib oladilar.

Bu usul yordamida o`quvchilar o`quvchilar mavzuga oid alohida sifatlarni, xususiyatlarni ajratishni o`rganib oladilar.

Masalan, ona tili darsligidagi son – so`z turkumining ma`no turlari haqida tushunchaga ega bo`ladilar.

Bu darsda biz «Diagramma Vena» usulini quyidagi tartibda qo`llash mumkin:





1. Birinchi yarim doira ichiga sanoq sonlar haqida.
2. Ikkinchi yarim doirachaga tartib sonlar haqida.
3. Ularning o'xshash tomonlarini 3-doira ichiga yozing, deb topshiriq berish mumkin.

Bu topshiriqni bajarish uchun o'quvchilarga vaqt beriladi va vaqt tugashi bilan har bir guruhdan bittadan o'quvchi chiqib, yozganlari bilan boshqa guruhdagi o'quvchilarni tanishtiradi. O'quvchilar qarsak chalib rag'batlantiriladi.

Bu metodni o'quvchilarning bilim saviyasiga qarab o'qish darslarida foydalanish mumkin. Bu usul orqali o'quvchilar tanqidiy, tahliliy va ijodiy fikrlashga o'rganadi. O'qituvchi fikrlashga shay turgan o'quvchilarni oldiga muammoli savol qo'yib, uni aniqlashtirish, echimini torpishga undaydi. Bu esa albatta, o'qituvchining o'z ustida muntazam ishlashiga, ijodiy qobiliyatiga va ko'proq izlanishiga bog'liq.

Ushbu bobning boshida ta'kidlab o'tkanimizdek, interfaol metodi asosan o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirish, ularning darsdagi faolligini oshirishning ta'minlaydi. Bu esa albatta, o'qituvchining o'z ustida ishlashiga, ijodiy qobiliyatiga va ko'proq izlanishiga bog'liq.

O'qituvchining fikrlashga shay turgan o'quvchilarni oldiga muammoli savol qo'yib, uni aniqlashtirish, echimini topishga undaydi.

**Qarorlar shajarasi** - usuli asosan o'tilgan mavzularni takrorlash hamda umumlashtirish maqsadida foydalaniladi. Unda bolalar kichik guruhlariga bo'linadi, har bir guruh birorta mavzudan (misol uchun, "Sonlarni yozilishi") tushgan masala bo'yicha belgilangan vaqt davomida (3-5 daq.) topshiriq bajaradi. So'ng 1-guruh, 2- guruhga, 2-guruh ku 3-guruhga, 3-guruh 4-guruhga o'z topshiriqlarni davom qilish uchun beradi. Bunday harakat har bir guruhga o'z topshirigi qaytguncha bajariladi. Keyin guruhlar o'z masala bo'yicha berilgan topshiriqni navbati bilan taqdim etadi va baholanadi.

**"Aql charxi"** usulida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, nutqi ravonlashadi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanadi.

Bu o'yinda ikki yoki uchta o'quvchidan iborat guruhchalar ishtirok etadi. Birinchi o'quvchi mavzuga doir terminlardan birini aytadi. Ikkinchi o'quvchi birinchi o'quvchi aytgan terminni qaytaradi va o'zi ham bitta termin aytadi. Uchinchi o'quvchi avvalgi ikkita terminni qaytaradi va bitta termin qo'shib aytadi. Yana birinchi o'quvchiga navbat keladi, u ham avvalgi uchta terminni qaytaradi va o'zi bitta termin qo'shib aytadi. Qaysi o'quvchi adashib ketsa yoki aytilgan terminiarni qaytarib aytsa, o'yindan chiqadi. Shu tariqa o'quvchilar guruhi davom etadi o'yinni tashkil etishda maqsad aniq bo'lishi va o'quvchilarning qaysi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlariga e'tibor qaratilishi muhim. Masalan; son - so'z turkumiga tegishli so'zlarni ayting:

1-o'quvchi: ikki

2- oquvchi: ikki - uch

3- o'quvchi: ikki – uch, o'quvchi

1- o'quvchi: ikki – uch, o'quvchi, birlashib

2- o'quvchi: ikki – uch, o'quvchi, birlashib, to'rtta

3- o'quvchi: ikki – uch, o'quvchi, birlashib, to'rtta, daraxt

1-o'quvchi: ikki – uch o'quvchi birlashib to'rtta daraxt ekishdi.

O'quvchi so'zlarni ketma-ket aytishda xatoga yo'l qo'ysa, o'yindan chiqadi. Boshlang'ich sinfda ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'qish motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki motiv o'quvchilarni ta'lim jarayoniga qiziqtiradi, darsga faol qatnashishiga, bilimlarni puxta egallashga undaydi. Interfaol metodlar o'qish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi.

### **"Baxtli tasodif" usuli.**

Bu usul orqali mavzu yuzasidan uyga berilgan topshirtqlarni nechog'li o'rganilganligini aniqlash oson bo'ladi. Buning uchun qog'ozdan kartochkalar tayyorlanadi va har bir kartochkaga 2-3 tadan savollar qo'yiladi. Faqat bitta kartochkaga "Yutuq "5" baho" deb yoziladi. Shu yutuqli kartochka kimga nasib qilsa, "Baxtli tasodif" sohibi hisoblanadi va bugungi darsda eng yuqori ballni oladi. Savolli kartochkalar olgan o'quvchilar ham savollarga bergan javoblari asosida

baholanadilar. nday usullar o'quvchida bilimga ishtiyoq uyqg'otadi. O'quvchi darslarga puxta hozirlik ko'rishga intiladi.

**Egri-bugri (zig-zag)** usuli darslik yo'q yoki uni soni oz bo'lsa, «oson» yangi mavzuni o'rganish, takrorlash, umumlashtirish maqsadida foydalaniladi. Unda bolalar kichik guruhlarga bo'linadi. Har bir guruh birorta mavzu (misol uchun, «Uy va yovoyi hayvonlari») bo'yicha bitta masalani belgilangan vaqt (5-8 daq.) davomida bu masalani o'rganadi yoki takrorlaydi, shunday qilib o'zlashtiradi. So'ng 1-guruh vakillari boshqa guruhlarga borib, ularga o'z masalani tushuntirib beradi. Bundan keyin o'qituvchi o'sha guruhlarga bu masala bo'yicha savollarni beradi va javoblarni baholaydi. Shu bilan birga tushuntirilgan bolalarga ham baho quyiladi. Bu amal oxirgi guruh o'z masalani tushuntirguncha takrorlanadi.

#### **«Bumerang» texnologiyasi<sup>5</sup>**

Mazkur texnologiya bir mashg'ulot davomida o'qib materialini chuqur va yaxlit holatda o'rganish, ijodiy tushunib yetish, erkin egallashga yo'naltirilgan. U turli mazmun va xarakterga, (muammoli, munozarali, turli mazmuli) ega bo'lgan mavzularni o'rganishga yaroqli bo'lib, o'z ichiga og'zaki va yozma ish shakllarini qamrab oldi hamda bir mashg'ulot davomida har bir ishtirokchining turli topshiriqlarni bajarishi, navbat bilan o'quvchi yoki o'qituvchi rovida bo'lishi, kerakli balni to'plashiga imkon beradi.

«Bumerang» texnologiyasi tanqidiy fikrlash mantiqni shakllantirishga imkoniyat yaratadi: xotirani, g'oyalarni, fikrlarni, dalillarni yozma va og'zaki shakllarda bayon qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ta'lim bilan bir qatorda mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

- jamo'a bilan ishlash mahorati;
- muomalalik;
- xushfe'llik;

---

<sup>5</sup> Korsatilgan manba.

- ko`nikuvchanlik;
- o`zgalar fikriga hurmat;
- faollik;
- rahbarlik sifatlarini shakllantirish;
- ishga ijodiy yondoshish
- o`z faoliyatining samarali bo`lishiga kiziqish;
- o`zini xolis baholash.

Asosiy tushunchalar quyidagilar:

Ochiq savollar - bu savollar muomala, o`zlatirishni damom ettirishga imkon beradi. Ularga qisqa, bir xil jazo berish mumkin emas. Yopiq savollar - bu savollar oldindan «ha» yoki «yo`q» tipidagi to`g`ri ochiq, javoblarni berishni ko`zda tutadi.

Ko`ndalang so`roq bir-biriga guruhlab beriluvchi qisqa savollar qatori bo`lib, bu o`ziga xos axborotlarni izlash hamda dalillarni, opponentlar pozitsiyasini aniqlash va muayyan qarorlar qabul qilish uchun ajoyib imkoniyatdir.

Ko`ndalang so`roq paytida munozaraga kirishish mumkin emas. Bu vaqtda faqat savollar beriladi, munozaraga kirishilmaydi.

O`qish darslarida dialogik nutqni takomillashtirish uchun amaldagi darsliklarda ko`zda tutilgan darslarni olib borish bilan bir qatorda muloqot usulida o`tkaziladigan quyidagi holatdarni ham tavsiya qilish mumkin:

1. Berilgan dialogning mazmunini tahlil qilish.
2. Berilgan dialogni takomillashtirish.
3. Turli vaziyatlar tasvirlangan rasmlar asosida dialog tuzish.
4. Nutq vaziyatining berilgan ta`rifi asosida dialog tuzish.
5. O`zgalar nutqini kuzatish va tahlil qilish.
6. Rolli o`yinlar o`tkazish.
7. Munozarali mavzular bo`yicha suhbat uyushtirish.

Og`zaki nutq faoliyatining yana bir shakli monologik nutq malakalarini shakllantirishda ham bir qator o`ziga xos muammolarni hal qilishga to`g`ri keladi. Bu o`rinda shuni ham aytib o`tish lozimki, tabiiy muloqot sharoitida, aksariyat

hollarda, dialog hamda monolog bir-biriga chambarchas bogʻlangan boʻladi. Binobarin, nutqning bu ikki shakli koʻp umumiy koʻnikma va malakalar yordamida amalga oshiriladi. Shu bilan bir qatorda ogʻzaki nutqning har bir shaklidagi nutqni tuzishda quyidagi malakalar yuzaga chiqishi mumkin:

1. Nutq jarayonida ifoda qilinayotgan hamma fikrlarni suhbat mavzusiga mos keltirish.

2. Barcha fikrlarni aynan shu vaziyatda koʻzda tutilgan muloqot maqsadini amalga oshirishga qarata olish.

3. Nutqning yoʻnalishini toʻgʻri belgilay olish.

4. Nutq jarayonida yuzaga kelayotgan fikrlarning oʻzaro bogʻlanishini taʼminlay olish.

5. Nutqning mazmunini muloqot vaziyatiga qarab oʻzgartira olish.

Oʻquvchilarning monologik nutqni muloqot usulida shakllantirish va takomillashtirish uchun anʼanaviy tarzda olib boriladigan darslarga bir qator oʻzgartirishlar kritish va yangi pedagog texnologiya asosida quyidagi tarzda darslarni tashkil etib olib borish kerak:

1. Berilgan matnning mazmuniga mos keladigan boshlovchi gapni tanlash.

2. Berilgan matndagi yakunlovchi jumlaning oʻzgartirish.

3. Berilgan matnning mazmunini jummalarning tartibini oʻzgartirgan holda gapirib berish.

4. Bogʻlanishli matndagi ortiqcha jummalarni aniqlash.

5. Munozarali muammo yuzasidan fikr bildirish.

6. Nutq vaziyatiga mos keladigan matnni tanlash.

7. Ogʻzaki va yozma nutqni taqqoslash.

Demak, oʻqish darslarida berilgan har bir mavzuni oʻtish orqali oʻquvchilar nutqini muloqot asosida tashkil etish masalasiga jiddiy eʼtiborni qaratish lozim. Bu albatta, ularning dialogik va monologik nutqlari orqali yaqqol koʻzga tashlanadi.

Umuman, dars jarayonida iloji boricha oʻquvchilarni koʻproq muloqotga kirishtirish kerak. Bu oʻz navbatida yangi pedagogik texnologiya asosida olib boriladigan darslarda yaxshi samara beradi.

Xulosa qilib aytganda, interfaol usullar darsning qiziqarliligi va ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarni ta'lim jarayonining faol sub'yektlariga aylantiradi.

Shuning uchun oliy o'quv yurtlari va fakultetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari-interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rnini va roli benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchilarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

## **2.2. Son-so'z turkumini o'rganishga fanlararo bog'lanishni amalga oshirish usullari**

Ma'lumki, pedagoglarimizning ta'lim-tarbiya nazariyasida o'quv fanlari o'rtasidagi aloqaga katta baho berilib bu aloqa bog'lanishi berilayotgan nazariy va amaliy bilimlarning ongli, faol, izchil, asosli, tushunarli va amaliyot bilan birligini ta'minlay oladigan asosiy omil ekanligini mumtoz pedagog olimlardan tortib bugungi kungacha bot-bot ta'kidlab keladilar.

Ona tili - maktab fani bo'lib, uning boshqa fanlar bilan didaktik maqsadlarga qarab har xil holatlarda ko'rilishi mumkin. Ona tili hamma maktab tartiblari bilan bog'langanligini ko'rsatib bermoqda, «chunki til hamma fanlar» bo'yicha ifoda vositasi bo'lib, u haqiqatni hamma tarafdin tasvirlab ko'rsatadi, tilni bilmasdan fikrlash faoliyati bo'lmaydi. Bu aloqaning mavjudligi aniq. Bu aloqa «Ona tili — boshqa fanlar» zanjirida o'rnatiladi, nafaqat ona tili uchun, hattoki, boshqa fanlar uchun ham. Chunki! til o'rganish quroli bo'lib u o'quvchilarga har qanday fanni o'zlashtirishda hal qiluvchi sharoitdir. Ona tili maktab ma'lumoti fani bo'lib keng nuqtayi nazarga ega.

Matematikani ona tili fani bilan bog'laydigan mavzular: «Son», «Chama son», «Sanoq son».

Ona tili va o'qish integratsiyasi.

Ona tilining maktabda fan sifatida boshqa o'quv fanlari bilan aloqasi asosan, har xil yo'nalishlarda qarab chiqilishi mumkin. Odatda, ona tili boshlang'ich

sinflarda o'quvchilarni og'zaki va yozma nutqlarini rivojlanishida asosiy o'rin tutadi. Shunday ekan, ona tili barcha fanlar bilan bog'liq bo'ladi, chunki til hamma fanlarni ta'riflash uchun zarur vosita demakdir. Tilni o'rganmasdan turib, boshqa sohalarda faoliyat yuritish mumkin emas. Til qurol sifatida har qanday fandan o'quvchi bilim olishi shart bo'lgan sharoitlardan biridir. Ona tili maktab ta'limida fan sifatida ko'p qirrali hodisadir va boshqa fanlar bilan aloqasi mazmunangina emas.

Olimlarning fikricha, bir fan ikkinchi fandagi savollarni, masalalarni yechishda bir vosita hisoblanar ekan. Ana shunday bog'lanishi lozim bo'lgan fanlardan biri ona tili va o'qishdir. Bularga qo'shimcha tarzda tasviriy san'at, mehnat fanlarini ham uyg'unlashtirish fan doirasini kengaytiradi. qaerda ikkita fanning o'zi emas, balki ko'proq fanlar integratsiyalansa, fanlarning aloqalar rivoji kuchayadi. Bunday darslar o'quvchilarni so'zga, ranglarning turfa olami, tovushlar sehriga chuqur kirib borishga ko'maklashadi, savodli, og'zaki va yozma nutqlari shakllanishiga yordam beradi, uning rivojlanishiga va boyishiga estetik didni oshirish, san'at asarlarini tushunish va to'g'ri baholay olishga, Vatan tabiatini go'zalligi va boyligini his etishga o'rgatadi.

Boshlanqich sinflarda ona tili va o'qish darslari integratsiyasini tashkil etishda fanning talablari, vazifalari o'rganib chiqiladi. Qo'yilgan maqsadlar ham har ikkala fanga ham tegishli bo'lishi shart. Mujassamlashgan darsda, mos mavzularni topish mushkul, lekin ona tili larsidagi mashqlarini bajarilishini o'qish darsligidagi mos mavzularga uyg'unlashtirish mumkin bo'ladi. bunda o'quvchi faqat o'qish yoki yozish bilan shugullanmasdan, balki har ikkisini ham bajarib boradi.

O'qish va ona tili darslarini o'zaro bog'lab olib borishda asosan ona tiliga oid mashqlarni bajarish jarayonida oo'qish darslarida berilgan matnlardan foydalanish mumkin. Bunda bu ikki fanning dars jadvaliga birin-ketin qo'yilishi qulaylik tug'dirai. O'quvchilar o'qish darllarida o'tilgan mavzularini yoddan chiqarmagan holda ona tili darslarida ana shu mavzudan keng foydalanishlari muKin. Bnda o'qituvchi darsga tayyorlanishda oldindan qaysi mavzular bir-biriga muvofiq kelishini aniqlab songra ularning o'zaro a'loqasini yo'lga qo'yadi.

Fanlarni bog'lab o'tishda faqatgina bir vaqtda kelgan mavzularni emas, balki o'tilgan mavzularni bog'lash ham o'quvchilarni o'tilgan mavzularni mustahkam egallashlari bilan birga o'rganilayotgan mavzularni hayotiy faoliyatlarida qo'llanishini o'zlari amaliy faoliyatlarida guvoh bo'ladilar. Son so'z turkumiga oid materiallarni o'tishda o'qish darsligida berilgan "Hisob ilmidagi yangilik" matnini eslatish mumkin. Ushbu matnda asosan son so'z turkumiga oid so'zlar qo'llanilgan.

O'quvchilarga son so'z turkumi tushuntirilganidan so'ng "Hisob ilmidagi yangilik" matni eslatamiz. Ular ushbu matnda ishtirok etgan son so'z turkumiga oid sozlarni o'qib aytib beradilar. Shunda o'qituvchi o'quvchilarga har bir so'z turkumini mana shunday so'zlashuv nutqida muhim ahamiyatga ega ekanligini aytib o'tishimiz maqsadga muvofiqdir. Chunki o'quvchilar mana shunday o'rganayotgan narsalarini asl mohiyatini bilganlaridagina bilim olishga bo'lgan qiziqishlari yanada ortadi.

Har ikki fanning o'zaro aloqadorligidan foylanib darlarni tahkil etishda nafaqat bu ikki fanning balki boshqa fanlarning ham a'loqadorlik imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Jumladan tasviriy san'at, mehnat, musiqa kabi fanlarning uyg'unligida tashkil etilgan darslar juda qiziqarli va samarali bo'ladi.

Biz maktablardagi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ish sharoitlarini o'rganar ekanmiz, ulardagi ko'rgazma, o'quv materiallari g'oyat kuchli ekanligi, sinf-xonlari o'quv tarbiya ishiga moslashtirilganligini ko'ramiz, ammo bugungi o'quv-tarbiya ishimizda buning o'zigina yuksak pedagoglarimizni yuksak mutaxassislikka ega bo'lishlarini o'zi etarli bo'lmayotganligini xam guvohi bo'lamiz. Xo'sh, nima kam, nima etishmaydi? Tajribalar umumlashtirib, o'rganilar ekan, xulosa o'quv-tajriba ishidagi bog'liqlikni yukligi o'quv predmetlari orasidagi aloqani sustligi, xatto fanlardan berilayotgan bilim va malakalarni bir-biriga bog'lanishini talab darajasida emasligi ishimizni sust olib borilishiga asosiy sabab bo'layotganini ko'ramiz. Chunki ana shu bog'lanishlarni yo'lga qo'ygan o'qituvchilar yaxshi natijalarga erishmoqdalar.



Ona tili o'qitishning samaradorligi ko'tarish masalalarini ishlab chiqishning eng yuqorisida fanlararo bog'lanish printsipli asosida o'qitishning nazariy va amaliy asoslarini yoritib turishni unutmashimiz kerak.

Biz boshlangich sinf o'qituvchilarining shu tajribalarini umumlashtirib, quyidagi xulosaga keldik. Biz yuqorida ko'rib o'tganimizdek, ona tili fani o'rganishning eng samarali, effektli yuli bu yukoridagi o'quv fanlarini o'zaro bog'langan holda o'rganish imkonini yaratishdir. SHuningdek, bu fanni maktablarda (aniqlovchi boshlang'ich sinflarda) o'rganiladigan o'rganilmaydigan fanlar bilan bog'langan holda o'qituvchining amalga oshirishidir.

- Boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan ona tili fani dasturlari eng avvalo, o'zaro va boshka o'quv fanlari bilan bog'langan holda o'rganilishi mutlaqo taqozo etadi.

- Bu bog'lanishni barcha mashg'ulotlarda amalga oshirilishi mumkin.

- Bu bog'lanish o'qituvchi mashg'ulotga tayyorgarligidan boshlanib, dars jarayonining barcha bosqichlarida shu ish uchun berilayotgan topshiriqni tushuntirishdi va bu ishlarni tahlili davrida amalga oshiradi.

Ona tili fanini o'zaro va boshqa fanlar bilan bog'lanishi nazariy (didaktik) va metodik (amaliy) harakatiga namoyon bo'ladi.

Nazariy (didaktik) bog'lanish tabiatda va jamiyatda, umuman moddiy olamda bo'layotgan va bo'ladigan voqea-hodisalarni ilmiy doiralarini ona tili mazmunida ob'ektni bog'lanishini ifodalashtiruvchi didaktik sharoitga aytiladi, ya'ni fanning ilmiy materialdan ijodiy foydalanish ona tili fanining har bir mashg'ulotida ta'lim darjasida ( turli nuqtai nazaridan) o'rganiladi, bu albatta, nutqni dastur talabiga ko'ra olinadi. Ana shu o'rganish sharoitida shu ob'ektni yoki voqea-hodisani o'rganuvchi fanlarning ilmiy materialdan ijodiy foydalanish demakdir. Ona tili fanining metodik jihatdan (amaliy) foydalanish o'qituvchi bilan o'quvchining ijodiy hamkorligida ifodalanadi.

### **2.3. 4-sinf ona tili darslarida son-so'z turkumini o'tishda interfaol usullarni qo'llash**

O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining IX sessiyasi (1997-yil 29-avgust)da qabul qilingan hamda bugungi kunda g'oyalari amaliyotga keng ko'lamda muvaffaqiyatli tadbiiq etilayotgan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" mazmunida ".....o'quv-uslubiy majmualarning hamda ta'lim jarayonini didaktik va axborot ta'minotining yangi avlodini ishlab chiqish va joriy etish", "... ta'lim muassasalarining moddiy texnika va axborot bazasini mustahkamlashni davom ettirish, o'quv tarbiya jarayonini yuqori sifatli o'quv adabiyotlari va pedagogik ilg'or texnologiyalar ta'minlash" hamda "... ta'lim muassasalarini resurs, kadrlar va axborot bazalarini yanada mustahkamlash, o'quv-tarbiya jarayonini yangi o'quv-uslubiy majmualar, ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan to'liq ta'minlash" kabi dolzarb vazifalarni ijobiy hal etish lozimligi alohida ta'kidlandi.

Mazkur vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishida yana bir omilning mavjudligi, ya'ni uzluksiz ta'lim tizimi xodimlari pedagog-o'qituvchilar tomonidan zamonaviy ta'lim texnologiyalarining mohiyatlaridan xabardorliklari hamda ularni ta'lim jarayonida samali qo'llay olishlari, shuningdek ta'lim jarayonini tashkil etishga nisbatan ijodiy yondashuvning qaror topishi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchilar-pedagoglarning barcha fanlar asoslarini o'qitishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar jarayonini noan'anaviy shakllarda tashkil etish ta'lim jarayonini mukammal andoza asosida loyihalashga erishish, mazkur loyihalardan oqilona foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lish ta'lim oluvchilar tomonidan nazariy bilimlarni puxta, chuqur o'zlashtirilishi, ularda amaliy ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishining kafoloti bo'la oladi. Ishimizning ushbu qismida ta'limning zamonaviy texnologiyalari hamda yangi pedagogik texnologiyalarni, asosiy fanlarni xususan, ona tili darschlarini o'qitish jarayoniga tadbiiq etish shartlari xususida so'z yuritiladi. Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak

natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga etkazib berish ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek ta'lim oluvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini baholash o'qituvchidan katta pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondoshuvni talab etadi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda bu borada katta tajriba boy tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda.

Mustaqillik yillariga kelib bizning mamlakatimizda ham yangi pedagogik texnologiyalarning interfaol usullaridan keng foydalanilib kelinmoqda.

Jumladan, 4-sinf ona tili darslarida son-so'z turkumini o'tish jarayonida ana shunday interfaol usullardan unumli foydalanish ancha qulaydir.

Son-so'z turkumi uchun yuqorida ta'kidlaganimizdek, 11 soat ajratilgan bo'lib, bu soatlar quyidagicha taqsimlangan:

1-dars: Son-so'z turkumi (takrorlash);

2-dars: Son-so'z turkumi (mustaxkamlash);

3-dars: Sonlarning yozuvda ifodalanishi;

4-dars: Sanoqni va tartibni bildiruvchi sonlar;

5-dars: Sanoqni va tartibni bildiruvchi sonlar;

6-dars: Sanoqni va tartibni bildiruvchi sonlar;

7-dars: Sonlarning otga bog'lanishi;

8-dars: Sonlarning otga bog'lanishi;

9-dars: Son yuzasidan takrorlash;

10-dars: Yozma ish;

11-dars: Uning tahlili, xatolar ustida ishlash.

Umuman olganda, mazkur so'z turkumi uchinchi chorakda o'tish uchun mo'ljallangan bo'lib, 109-119-darslar aynan shu so'z turkumini o'tish uchun belgilab berilgan. Ana shu mavzularni interfaol usullardan foydalanib olib borilsa, o'quvchilarga dars yanada qiziqarli bo'ladi.

Shuning uchun biz ham oddiy an'anaviy, ham noan'anaviy dars shakllaridan foydalanib o'quvchilarga bu mavzu qay tarzda o'tilishi xususida fikr yuritdik.

### **109-dars.**

#### **Mavzu: Son so'z turkumi (takrorlash)**

**Darsning maqsadi:** A) o'quvchilarning son-so'z turkumi, uning so'roqlari, qaysi so'z turkumidagi so'zga bog'lanishi haqidagi bilimlarini aniqlash, mustahkamlash. O'quvchilarning sanalarni eslab qolish qobiliyatini oshirish. Savollar orqali matnni qayta hikoyalatish. Ularning bog'lanishli nutqini o'stirish;

B) Vatanimiz hayotida ro'y bergan voqealar sanalarini o'quvchilar yodiga tushirish orqali ularda vatan ramzlari tarixiga qiziqish xissini uyg'otish.

**Darsning turi:** Takrorlash- maustaxkamlash darsi.

**Darsning metodi:** Suhbat metodi.

**Darsning jihozi:** Tarixiy sanalar bilan bog'liq narsalar rasmi.

**Darsning borishi:**

O'qituvchining vazifasi: o'rganilgan so'z turkumlarini o'quvchilar yodiga tushirishi, son so'z turkumiga oid so'zlarining otga bog'lanib kelinishi va yozilishini o'rgatish uchun savollar tuzishi, matnlar ta'minlashi lozim.

#### **1.Dars o'tilgan mavzular yuzasidan o'quvchilar bilimini esga tushiruvchi suhbat bilan boshlanadi:**

- o'zbek tilida nechta so'z turkumi bor?
- predmet nomlarini bildirgan so'zlar turkumi nima deb ataladi?
- Gapda otlar qanday so'roqqa javob bo'ladi?
- Sifatlar narsa va shaxslarning nimasini bildiradi?
- Sifat va otlarni nimalariga ko'ra ajratamiz?
- Narsalarning soni, sanog'ini bildirgan so'zlar nima deb nomlanadi?
- Sonlarni yozuvda nimalar bilan ifodalaysiz?

#### **2.Eshituv diktanti.**

- Bir yilda 12 oy bor. Bir oy to'rt haftaga teng. To'rt xafta 30-31 kundan iborat. Faqat fevral oyida kunlar soni 28 ta. Bir yil necha kundan iborat?

Diktant yuzasidan quyidagicha grammatik topshiriq beriladi. Buni o'quvchilar mustaqil bajaradilar.

- diktant matnida sonni ifodalagan so'zlarni topib, tagiga chizing.

- matndagi sonlar nimaning sanog'ini bildirayotganligini ayting. Savol-javob yordamida o'quvchilar sonning nomini, narsa-buyumning son-sanog'ini, tartibini bildirishini, son Necha?, Qancha?, Nechta?, Nechanchi? so'roqlariga javob bo'lishini eslaydi.

### **3. Darslik bilan ishlash.**

321-mashqning sharti o'quvchilarga o'qitiladi. Chiziqchalar o'rniga qo'yiladigan so'zlar savol-javob yo'li bilan aniqlanadi.

- Vatanimizga sodiq farzand ekanligingizni qanday isbotlashingiz mumkin? (Kattalarni hurmat qilishimiz, a'lo baxolarga o'qishimiz, Vatanimiz chegaralarini qo'riqlashimiz Ona-vatanga sodiqligimizni bildiradi).

- Vatanimizda ro'y bergan muhim voqealarni yodda saqlashimiz ham sodiqlik beligisi bo'la oladimi? (bo'la oladi).

- Hozir bu borada bilimlaringizni sinab ko'ramiz. Mustaqillikni qachon qo'lga kiritdik? (1991 yil 1 sentyabr-Mustaqillik kuni.)

- Davlat bayrog'i qachon qabul qilingan? (1992 yil 18 noyabrda davlat bayrog'i haqidagi qonun tasdiqlangan).

- Davlat gerbi-chi? (1992 yil 2-iyulda davlat gerbi haqidagi qonun tasdiqlangan).

- Konstitutsiyamizga qachon ega bo'ldik? (1992 yil 8-dekabrda o'zimizni Konstitutsiyamizga ega bo'ldik).

- Davlatimiz madhiyasini qachondan kuylay boshlaganmiz? (1992 yil 10 dekabrdan davlatimiz madhiyasini kuylay boshlaganmiz).

O'quvchilar javoblari asosida chiziqchalar o'rniga sanalarni qo'yib matnni yozadilar. Nechanchi? So'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni aniqlaydilar.

Darslikdagi matn bilan o'zlari tuzgan matnni solishtiradilar va mazmunan to'liq ifodalangan matnni (o'zlari tuzgan matn) aytadilar.


SON-SO'Z TURKUMI ASOSIDA

MATN TUZING



MATNDA SON SO'Z TURKUMI

QATNASHSIN



322-mashq.

O'quvchilar matndagi gaplarni ifodali o'qiydilar. Sonlarni so'roqlar yordamida aniqlab, o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chiradilar.

- Matn nima haqida ekan? (Ulkan tort haqida ekan.)
- Matn nechta gapdan tuzilgan? (besh gapdan iborat.)
- Matnga sarlavha qo'ying ("Ginnes rekordlariga kirgan tort".)
- Ulkan tortni qaerda oshpazlar yaratibdi?
- Tortning uzunligi qancha?
- Tortni tayyorlashga qancha masalliq ketgan?
- Bu tortga necha kishining mehnati singgan?
- Uchinchi songa so'roq beradilar.
- Tortning uzunligi necha metr? (2 kilometru 396 metr).
- Bu sonlar qaysi so'zlarga bog'langan? (kilometr, metr so'zlariga bog'langan).
- To'rtinchi gapda 500 soni qaysi so'zga bog'langan? (500 kilogramm sariyog').
- 900 soni-chi? (900 kilogramm shakar).
- O'n to'rtming soni bog'langan so'zni toping (14 ta tuxum).

O'quvchilar suhbatdan so'ng sonlarni o'zi bog'langan so'zlar bilan daftarlariga yozadilar. Yozganlarini darslikka qarab tekshiradilar. O'quvchilarni gazeta, jurnal o'qishga qiziqtirish maqsadida quyidagi savollardan foydalaniladi:

- Matndagi ma'lumot nimadan olingan?
- Hozirda yana nimalar orqali ma'lumotlar olinadi? (kompyuterdan internet orqali ma'lumot olinadi.)

### **1. O'quvchilarning mustaqil faoliyati**

Darsimizdagi "Eslang, o'ylang" belgisi ostida bo'lgan savol va topshiriqlarga o'tkazilgan savol – javoblar asosida mustaqil javob tayyorlaydilar. Bunga har bir o'quvchi o'zi javob berishi mumkin. Yoki gurux-gurux bo'lib javob tayyorlashi va bir kishi topgan javobini o'quvchiga gapirib berishi mumkin.

## 2. **Uyga vazifa. 323-mashq.**

Mashq topshirig'i va matnni o'quvchilar ichida o'qiydilar. Bir o'quvchi vazifani qanday bajarish lozimligini tushuntiradi. O'quvchilar so'roqlar orqali sonlarni topadilar. O'qituvchi o'quvchilardan quyidagi savollarga javob oladi:

- Matn necha gapdan tuzilgan?

- Matnda maqsadga ko'ra qanday gaplar qatnashgan?

- Matnda necha kishining suxbati berilgan?

- So'roqlar yordamida mashq og'zaki tarzda quyidagi tartibda bajariladi.

- Bolalarning yoshini bildirgan so'zni toping va so'roq bering. (olti, sakkiz va o'n yosh).

- Bu sonlar qaysi so'zga bog'langan? (yosh so'ziga bog'langan.)

- 30 nima? (30 qadam so'ziga bog'langan.)

- 50 raqami qaysi so'zga bog'langan? (50 ta nima? 50 ta baliq. Baliq so'ziga bog'langan.)

- Kenjatoy nechagacha sanashni bilar ekan? (yigirmagacha sanashni bilar ekan).

O'quvchilarga raqamlarni harfiy ifodalarni o'zi bog'langan so'z bilan birga yozib kelishlari aytiladi.

## 3. **O'quvchilarning baholari e'lon qilinadi.**

O'quvchilar javobi umumlashtiriladi. So'z turkumlaridan yana biri sonidir. Sonlar necha?, qancha?, nechanchi? so'roqlari yordamida aniqlaysiz. Ular narsalarni, shaxslarning sanog'ini, tartibini bildiradi. Ularni yozuvda harfiy ifoda bilan to'g'ri bo'lishini bilishingiz lozim.



#### **2.4. Tajriba-sinov ishi.**

Metodik ishlar tizimi degan ifoda bir qarashda juda katta da'volarni qo'yayotgandek tuyuladi. Aslida bu katta da'vo emas, balki juda katta mehnatni talab etishini ta'kidlash kerak. Ushbu tizim ma'lum bir mavzuni o'rganishda qo'yiladigan pedagogik maqsad va vazifalardan boshlab, tanlanadigan vosita, metod va usullargacha, tajriba-sinov ishlarining dastlabki holatigacha bo'lgan jarayonlarni qamrab oladi.

O'quvchilarning ona tili ta'limiga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish va rivojlantirish o'quvchilarning adabiy ta'limi bilan bog'liq bo'lgan eng oxirgi natija emas, balki mana shu qiziqish va havaslarini o'stirishdagi uzluksiz jarayon sifatida qaraladi.

O'quvchilarning ona tili fanining jumladan, son –so'z turkumini o'rganish jamiyatimiz rivojlanishining hozirgi bosqichidagi ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlar fonida ko'rib chiqilishini taqozo etmoqda. Ammo bu jarayonda tilshunoslik qonuniyatlari hamda pedagogik-psixologik talablarning o'ziga xosligini ham nazardan chetda qoldirmaslik ham taqozo etiladi.

Ushbu talablarni amalga oshirish o'quvchilarning adabiy tajriba va qobiliyatlarini, o'qituvchilarning pedagogik mahoratlarini, bugungi pedagogik amaliyotning o'ziga xos xususiyatlarini yaxlit bir tarzda omuxtalashtirishni talab etadi.

Shunga ko'ra biz mana shu muammolarni amaliy jihatdan ko'rib chiqish uchun bir qator tajriba-sinov ishlarini o'tkazib ko'rdik. Bularning natijasida o'quvchilarning shu sohada egallashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarining mazmuni hamda hajmlari belgilandi, o'quvchilarning nisbatan qadimiy yodgorliklarimiz ustida ishlash bosqichlari ko'rsatildi, o'quv materiallarining o'quvchilarga etkazilishi bilan bog'liq bo'lgan xilma-xil shakl va usullarning o'ziga xosliklari bevosita amaliyotga tatbiq etilib, ularning fazilat va nuqsonlari ilmiy-metodik jihatdan obyektiv baholandi. Oqibatda, bevosita ta'lim-tarbiya jarayongiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan ish tajribalari amaliyotga tavsiya etildi.

Men bitiruv malakaviy ishimni yoritish jarayonida tajriba-sinov ishimni shahrimizning 7-umumiy o'rta ta'lim maktabida olib bordim. Albatta bu tajriba-sinov ishimni quyidagi 3 bosqichda olib bordim:

1-bosqich. **Kuzatuv bosqichi.** Maqsad va vazifalar: o'qituvchi va o'quvchilar jamoasi bilan tanishish, 4-sinf ona tili darslarini kuzatish, ta'lim jarayonida bitiruv malkaviy ish mavzusiga alohida e'tiborni qaratish.

Men tajriba-sinov ishimning kuzatuv bosqichida 4-«A» va 4-«B» sinflarni kuzatdim. Sinf o'qituvchilaridan o'quvchilar haqida so'rab oldim. Sinf o'quvchilari bilan yaqindan tanishib chiqdim. Darslarni kuzatish jarayonida o'quvchilardan testlar, yozma ish, ya'ni diktant oldim. O'quvchilarga har bir test topshiriqlarini (5 tadan test savolini va javobini yozilgan qog'oz) har bir o'quvchiga tarqatib, ularga ma'lum bir vaqtni ajratdim hamda mazkur mavzular bo'yicha ularning bilim va darajalarini aniqladim.

**Bu ko'rsatkichni aniqlashda quyidagi mezonlarga tayandik.**

<b>№</b>	<b>O'quvchilar bilimini aniqlash mezonlari</b>
1	Matndagi so'zlarni to'g'ri yoza olishlari;
2	Matndagi so'zlarni husnixat asosida yoza olishlari;
3	Matndagi son - so'z turkumlarini ajrata olishlari;
4	Son – so'z turkumini turlarini bilishlari;
5	Son – so'z turkumlari orqali gaplar tuza olishlari.

Bular orqali o'quvchilarning bilim darajasini aniqlab oldim. Buning uchun yuqorida aytib o'tilgan topshiriqlarni amalga oshirdim. 4-«A» sinfda 33 ta, 4-«B» sinfda 32 ta o'quvchi qatnashdi va natija quyidagicha baholandi:

<b>Sinf</b>	<b>O'quvchilar</b>	<b>Qatnashdi</b>
4- «A»	33	33
4-«B»	32	32

## A. Tajriba – sinov oldi natijalari

<b>MEZONLAR</b>									
<b>4”A” tajriba sinf</b>					<b>4”B” nazorat sinf</b>				
Matndagi soʻzlarni toʻgʻri yoza olishlari;	Matndagi soʻzlarni husnixat asosida yoza olishlari;	Matndagi son - soʻz turkumlarini ajrata olishlari;	Son – soʻz turkumini turlarini bilishlari;	Son – soʻz turkumlari orqali gaplar tuza olishlari.	Matndagi soʻzlarni toʻgʻri yoza olishlari;	Matndagi soʻzlarni husnixat asosida yoza olishlari;	Matndagi son - soʻz turkumlarini ajrata olishlari;	Son – soʻz turkumining turlarini bilishlari;	Son – soʻz turkumlari orqali gaplar tuza olishlari.
28	31	30	25	24	29	30	23	26	23
85%	94%	91%	76%	73%	72%	91%	81%	72%	94%

Bu maʼlumotlardan koʻrinadiki, mavzu haqida oʻquvchilar umumiy tushunchaga ega ekanlar.

Soʻng II bosqichga oʻtdik. Unda men asosan, ona tili darslarida son – soʻz turkumi mavzusi boʻyicha bilim, koʻnikma va malakalarini kengaytirishga harakat qildim.

### **II bosqich rivojlantiruvchi bosqich.**

Maqsad va vazifalar: Tajriba-sinov ishlari ona tili darslarida olib borildi. Ona tili darslarida kichik guruhlariga boʻlib olgan holda, darslarni texnologik loyihasini tuzib chiqildi va shu asosda olib borildi. Asosan turli xil oʻquvchilarni fikrlashga undovchi, ularni darsda faolligini oshiruvchi oʻyinlar, strategiyalarni, usullarni qoʻllagan holda darslarni tashkil etdim. Oʻquvchilarni bunday tarzda tashkil etilgan darslar jarayonida kuzatar ekanman, ularning qiziqishlari ortganini, faollik bilan, tashabbuskorlik bilan harakat qilayotganliklarini, fikrlashlarida oʻsish, oʻzining mustaqil fikriga ega boʻlgan holda savollarga javob berib, ularni asoslashga oʻrganib borayotganliklarini kuzatdim. Oʻquvchilar deyarli barcha strategiyalar, oʻyinlarni qoʻllanish jarayonida ular uchun ushbu metod qiziqarli ekanligini tushundilar va oʻzlari ularni toʻgʻri hal qilishga, biror-bir yangi gʻoya kashf qilishga intila boshladilar. Oʻquvchilarda darsda aqliy zoʻriqishdan koʻra,

endilikda qiziqarli aqliy faoliyat bilan shug`ullanayotganliklari uchun darslarda toliqish, zerikish sezilarli darajada kamaydi. Ayniqsa, guruhlarda har bir o`quvchi o`z guruhi uchun jon kuydirib, ular oldida va o`zi oldida mas'uliyatni his qilgan holda savollarga javob berib, fikrlarini asoslab, dalillar keltirishni, o`zgar oldida so`z olib gapirishni o`rganib bordilar. Darslarda fanlararo integratsiyadan foydalangan holda o`quvchilar rasm chizish, musiqa tinglash, jismoniy mashqlar bajarish kabilar bilan shug`ullanib bordilar. O`tkazilgan pedagogik tajriba natijalarini qayta sinov o`tkazish orqali tekshirib ko`rildi. Qayta sinov o`tkazishda savol-javob, test usullaridan foydalanildi. Ushbu nazoratlar natijalari quyidagicha bo`ldi: 2-jadval

### B. Tajriba-sinov ishlari natijalari tahlili.

MEZONLAR									
4"A" tajriba sinf					4"B" nazorat sinf				
Matndagi so`zlarni to`g`ri yoza olishlari;	Matndagi so`zlarni husnixat asosida yoza olishlari;	Matndagi son - so`z turkumlarini ajrata olishlari;	Son - so`z turkumining turlarini bilishlari;	Son - so`z turkumlari orqali gaplar tuza olishlari.	Matndagi so`zlarni to`g`ri yoza olishlari;	Matndagi so`zlarni husnixat asosida yoza olishlari;	Matndagi son - so`z turkumlarini ajrata olishlari;	Son - so`z turkumining turlarini bilishlari;	Son - so`z turkumlari orqali gaplar tuza olishlari.
28	31	32	26	28	29	30	24	27	25
85%	94%	97%	83%	85%	88%	91%	78%	82%	83%

Yuqoridagilar asosida o`tkazilgan tahlillar shuni ko`rsatadiki, tajriba va nazorat sinflarida olib borilgan ta`lim uslubiyotlari bir- biridan tubdan farqli bo`lib, tajriba sinflaridagisi samarali ekan.

Bu kabi ishlar kelajakda o`tkaziladigan darslarni qanday o`tkazish kerakligini belgilab berdi. Shu sababli, biz ishimizni asosan, o`quvchilarning takliflaridan kelib chiqib belgiladik.

Bir nechta namunaviy darslarni tashkil etdik. Mavzuga bog`lab darslarni o`tib berdik. O`quvchilarning qiziqishi juda oshib ketdi. Chunki tashkil qilingan darslar

o'quvchilarni zeriktirishga yo'l qo'ymadi. Ularda mustaqil va erkin fikr yuritishni, mavzuga oid gaplarni bema'lol tahlil qilishni ta'minladi. Bugungi ta'limning asosiy shartlaridan biri ham o'quvchilarni mustaqil fikr yuritishga o'rgatishdir.

Dunyo bo'yicha ta'lim jarayoniga e'tibor juda kuchayib ketmoqda. Biz o'qituvchilar ularni to'g'ri tushungan holda darslarda o'quvchi mustaqilligini ta'minlash, ularda mustaqil ishlash, ona tili darslarida o'quvchilarni mavzuni o'zlashtirish ko'nikmalari haqidagi tasavvurlarini, bilim darajalarini o'stirishga doimo diqqatni qaratmog'imiz kerak bo'ladi.

Xullas, ishimizning 3-bosqichida buni aniqlash imkoniga ega bo'lamiz.

### III bosqich. Solishtirma.

Maqsad va vazifalar: Kuzatuv va rivojlantiruvchi bosqichlaridagi natijalarni solishtirma-analiz qilish, ularni jadvallarda aks ettirish.

#### D. Solishtirma

MEZONLAR									
4"A" tajriba sinf					4"B" nazorat sinf				
Matndagi so'zlarni to'g'ri yoza olishlari;	Matndagi so'zlarni husnixat asosida yoza olishlari;	Matndagi son - so'z turkumlarini ajrata olishlari;	Son - so'z turkuminih turlarini bilishlari;	Son - so'z turkumlari orqali gaplar tuza olishlari.	Matndagi so'zlarni to'g'ri yoza olishlari;	Matndagi so'zlarni husnixat asosida yoza olishlari;	Matndagi son - so'z turkumlarini ajrata olishlari;	Son - so'z turkumining turlarini bilishlari;	Son - so'z turkumlari orqali gaplar tuza olishlari.
28	31	30	25	24	29	30	23	26	23
28	31	32	26	28	29	30	24	27	25
=0%	=0 %	=7%	=3 %	=12 %	=0 %	=0 %	=3 %	=3 %	=6 %

**O'quvchilar soni - 100 %**

**Mezonga ko'ra o'zlashtirganlar - x %**

**$x = 100 \times \text{Mezonga ko'ra o'zlashtirganlar} / \text{O'quvchilar soni}$**

Tajriba-sinov ishlarining natijalarini rasmiylashtirishda dars jarayonini kuzatish, test, so'rov o'tkazish, ma'lumotlarni statistik tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

Tajriba natijalarini yakunlashda o'quvchilarning aqliy mehnat faoliyatini takomillashganligi darajasini aniqlash mezonlari sifatida ularning Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishda idrok etish, fikrlash, tahlil qilish, jamlash va xulosa chiqarish qobiliyatlari baholarda ifodalandi. 5 balli baholash tizimiga mutanosib ravishda «past», «o'rta», «yaxshi», «a'lo» darajalar belgilandi.

Tajriba-sinov yakunida quyidagi samarali natijalarga erishdik:

1. O'quvchilarning darslarida son – so'z turkumi haqidagi tushunchalari shakllantirildi;
2. O'quvchilarning son – so'z turkumi haqidagi bilimlari rivojlantirildi;
3. Chiroyli yozish malakalari shakllantirildi;
4. Sinf o'quvchilarining davomati yaxshilandi;
5. Yozma savodxonliklari oshdi;
6. Mustaqil fikrlash, fikrni ifodalay olish qobiliyatlari shakllandi;
7. Mustaqil tasvirlash, yozma bayon qilish xususiyatlari rivojlandi;
8. O'quvchilarning turli xil qobiliyat va qirralari rivojlantirildi;

Bulardan ko`rinib turibdiki, qilingan tajriba natijasi oshgani isbotlandi.

Demak, bevosita qiziqarli tarzda tashkil etib olib borilgan dars samarali ekan. Bu orqali o'quvchilarda bizning ishimizga bo'lgan qiziqishlarini ortishiga, ularni shu mavzu yuzasidan erkin va mustaqil fikrlashga bilim darajalari, malakalarini o'stirishga yo'naltirildi.

## **Xulosa**

Men ushbu malakaviy ishning yakunida quyidagi xulosaga keldim.

Bugungi ta'lim tizimida biz avval maqsadni belgilab, so'ng natija sari intilishimiz kerak. Ana shunda har bir ishga biz oldinga siljigan bo'lamiz. Ta'lim kundan-kunga yangilanib bormoqda. Biz ba'zan rivojlanish oldida kuchimiz yetmaganday bo'lib qoladi. Sababi, dunyo ta'limi kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Shuning uchun biz o'qituvchilar ozgina o'z ustimizda ishlamasak, bu sohada orqada qolib ketishimiz aniq. Shunday ekan, ta'lim jarayonidagi yangiliklarni bilib borishimiz lozim. Ana shunda bu sohada buyuk o'zgarishlarni yasay olamiz.

Biz o'rgangan mavzumiz buyicha ishimizda yuqoridagi muammolarni hal etishga urindik. Uning bugungi yangiliklarni tushungan holda tadqiq etishga urindik. Mavzuni yangi pedagogik texnologiya talablariga suyanan holda yechishga urindik. Har bir mavzuga aloqador muammolarni ilmiy manbalarga tayangan holda hal etishga erishdik. Muammolar hal etishga Respublikamizdagi eng taniqli mutaxassislarni fikrlariga suyandik. Bulardan tashqari mavzu asosidagi takliflarimizni tuman, viloyat maktablaridagi tajribalarga suyanib hal etishga urindik.

Boshlang'ich sinflar ona tili darslarida son-so'z o'rganishda o'quvchilar faolligini oshirishda bitiruv malakaviy ish o'z oldiga birinchidan muayyan mavzuni chuqur va mukammal o'lashtirish imkoniyat va usullarini metodik jihatdan asoslab bersa, ikkinchidan mavzuni tushuntirishda rang-barang usullardan, o'yinlardan foydalanishni tushuntirish o'quvchilarni yanada va darsga, ya'ni, ona tili darsiga bulgan qiziqishini orttiradi.

Kichik yoshdagi bolalarga beriladigan til ta'limi va tarbiyasi o'zgacha yo'nalish, o'zgacha usullar bilan boyitib, til sofligi, adabiy til meyorlarini singdirish kabi zaruriy mashqlar vositasida olib boriladi. Shuningdek, ona tili fanini o'qitishda pedagogik texnologiyalarning ilg'or usullariga tayanib ish ko'rmoq joiz hamda bolalar idrok eta oladigan topishmoqlar tizimini ishlab chiqish va qisman maxsus o'quv qo'llanmalar mazmuniga mazmuniga kiritilish zarur.

Boshlang'ich ta'limning samaradorligini oshirish omillaridan biri bolalarning savodli yozish malakalarini tarbiyalashdir. Buni 1-sinfdan boshlanib, yuqori sinflarda ham davom ettirilishi lozim.

Hozirgi fan-texnika rivojlangan bir paytda ona tili darslarimizni ham noan'anaviy, texnika vositalaridan foydalangan holda o'tkazishni taqazo etmoqda. O'quvchilarning ongida, olgan bilimlarni uzoq vaqt saqlashi, bu o'qituvchining pedagogik mahoratiga, bilim saviyasiga bog'liq.



## **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

### **I. Rasmiy manbalar:**

1. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз.- Тошкент: Ўзбекистон, 2016.-56 б.
2. Мирзиёев Ш. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга кураамиз. -Тошкент :Ўзбекистон, 2016.-488 б.
3. Мирзиёев Ш. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатлари таъминлаш-юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016.-488 б.
4. Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик-ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак.- Тошкент: Ўзбекистон, 2017.-104 б.
5. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma`naviyat, 2008.- 176 b.
6. Karimov I.A. Yoshlarimiz xalqimizning ishonchi va tayanchi. – T.: Ma`naviyat, 2006.-112 b.
7. Karimov I.A. Milliy mafkura haqida. – Toshkent: O`zbekiston, 2000. – 96 b.
8. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi (to`plam). – Toshkent, 2000.-64 b.
9. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947 сонли Фармони.
10. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси – Т.: Ўзбекистон, 2014. -46 б.

### **II. Ilmiy-metodik adabiyotlar:**

1. Abduraxmanova N. Qiziqarli dars faolligidir. Boshlang'ich ta'lim jurnali 2004 yil.
2. Akramova B., G'ulomov H., Yuldasheva SH., Shodmonqulova D. 4-sinf ona tili darslari.

3. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. 2003 yil . Tashkent.
4. Abdullaeva G., Nazarov K., Yuldasheva Sh. Savod o'rgatish metodikasi. "O'qituvchi" nashriyoti 2000 yil.
5. Abdullajonova M. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining o'zlashtira olmaslik sabablari // Xalq ta'limi, 2002.- № 6.- B. 51-53.
6. Boshlang'ch ta'lim bo'yich yangi tahrirdagi o'quv dasturi- Tashkent, 2010.
7. Q.Qosimova., S.Fuzalov va A.Ne'matovalar. 2-sinf ona tili darsligi.
8. 10. Ernazarov F. Boshlang'ch sinflarda ona tilini o'qitish uslubiyoti.- T., 2005.
9. Ibragimov X.I., To'raqulov X.A. Ta'limni texnologiyalashtirish va undagi samaradorlikni aniqlash // Uzluksiz ta'lim. 2004.- № 6.-B. 15-30.
10. Ibodullayeva M. O'quvchilarni darslik va ko'rgazmali qurollar bilan ishlashga o'rgatish // Xalq ta'limi, 2005.- № 3.- B. 43-45.
11. Qosimova K. va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi.- T.: Noshir, 2009.
12. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Tashkent: Moliya, 2003. – 172 b.
13. Saidov T. Ilg'or pedagogik texnologiyaning mazmun-mohiyatini «Aqliy hujum» usuli bilan o'qitish texnologiyasi.- Tashkent, 2003.
14. G'ulomov A., Qodirov M. Ona tili o'qitish metodikasi. \_ Tashkent: Universitet, 2001.- 224 b.

### **III. Internet saytlari:**

1. Nam DU. uz.
2. WWW. referat. uz.
3. WWW. rambler. literature. ru.
4. www. tdpu. uz
5. www. pedagog. uz
6. www. Ziyonet. uz
7. www. edu. uz
8. tdpu-INTRANET. Ped

## MUNDARIJA:

**Mavzu: «Interaktiv metodlarni ona tili darslarida son soʻz turkumini oʻtish jarayonida qoʻllash usullari»**

**Reja:**

<b>Kirish.....</b>	<b>3</b>
<b>1-bob. Boshlangʻich sinf ona tili darslarida son – soʻz turkumini oʻrganish uslubiyoti.....</b>	<b>9</b>
1.1. Soʻz turkumlari - boshlangʻich sinf ona tili taʼlimining asosi.....	9
1.2. Son – soʻz turkumi haqida maʼlumot.....	19
<b>2-bob. Interaktiv metodlarni ona tili darslarida son soʻz turkumini oʻtish jarayonida qoʻllash usullari.....</b>	<b>28</b>
2.1. Son-soʻz turkumini interaktiv usullardan foydalanib, oʻquvchilar faolligini oshirish yoʻllari.....	28
2.2. Son-soʻz turkumini oʻrgatishga fanlararo bogʻlanishni amalga oshirish usullari.....	38
2.3. 4- sinf ona tili darslarida son-soʻz turkumini oʻtishda interfaol usullarni qoʻllash.....	42
2.4. Tajriba – sinov ishi.....	49
<b>Xulosa.....</b>	<b>55</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati.....</b>	<b>57</b>